

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Dilrabo Quvvatova

**YANGI O‘ZBEK ADABIYOTI
(innovatsion usullar)**

O‘QUV QO‘LLANMA

Buxoro – 2022

UO'K 821.512.133.09(075.8)

83.3(50')

Q 71

Quvvatova, Dilrabo

Yangi o'zbek adabiyoti (innovatsion usullar) [Matn] : o`quv qo`llanma / D.

Quvvatova . -Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durдона, 2022.-84 b.

BBK 83.3(50')

Ma'lumki, oliy ta'limning filologiya fakultetlarida "O'zbek adabiyoti tarixi" fani tarkibida "Yangi o'zbek adabiyoti" o'tiladi. Ushbu yo'nalishda bir qator qo'llanmalar yaratilgan va dasturlari ishlab chiqilgan. Mazkur o'quv qollanma shularga tayanib tuzilgan. O'quv qollanmada H.Olimjon, S.Zunnunova, E.Vohidov, A.Oripov singari atoqli shoirlarning ijodi, yaratgan asarlarini o'rganish bo'yicha yangicha tahlillar aks etgan va "Intellekt-karta", "Klaster", "BBB", "Zakovatli zukko", "Krossvord", "Kichik guruhlarda ishlash" singari yangi pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilgan.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalari hamda o'qituvchilarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

Darmonoy O'rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

Bashorat Jamilova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Buxoro davlat universiteti ilmiy kengashi qarori (04.03.2021.,
№12) bilan nashrga tavsiya etilgan.**

ISBN 978-9943-7931-4-9

SO‘Z BOSHI O‘RNIDA

Yangi pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi boshqa fanlar qatori adabiyotni o‘qitishda ham keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Zamonaviy pedagogikaning so‘nggi yutuqlari mahsuli bo‘lgan – noan’anaviy usullar bugungi talabani ko‘proq izlanishga, tafakkur qilishga o‘rgatishi bilan qator afzalliklarga ega. Shundan kelib chiqilsa, kollej adabiyot mashq‘ulotliklariga kiritilgan mavzular mohiyatini talabaga yetkazib berish uchun ishlanmalar zarur.

To‘g‘ri, bu yo‘nalishda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda: o‘quv va usuliy qo‘llanmalar, namunaviy mashq‘ulot mazmunnomalari yaratilmoqda. Bularning barchasi adabiyot fanini o‘qitishda eng yaxshi natijalarga erishish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning dunyoqarashini o‘stirish, tafakkur doirasini kengaytirish, ma’naviy-ruhiy kamolotini ta’minlash kabi ezgu maqsadlarga xizmat qiladi. Shuni ko‘zlagan holda ushbu o‘quv qo‘llanmada ko‘p yillik tajribaga tayangan holda, yangi o‘zbek adabiyoti vakillari ijodiga bag‘ishlangan mavzular “Intellekt-karta”, “Klaster”, “BBB”, “Zakovatli zukko”, “Krossvord” singari yangi pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan. Ayni choqda Hamid Olimjon ijodi, A.Oripov she’rlari, S.Zunnunovanning “Ruh bilan suhbat”, E.Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonlari, A.Oripov asarlari tahliliga ijodiy yondashilgan.

Mutaxassislarning bu boradagi taklif va mulohazalari keyingi izlanishlarimizga qanot bag‘ishlaydi.

Tuzuvchidan

MAVZU: HAMID OLIMJON IJODI



Reja:

1. Hamid Olimjonning hayot va ijod yo‘li.
2. Shoir lirikasining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.
3. “O‘rik gullaganda” she‘ri va g‘azalni yangicha usulda o‘rganish yo‘llari.
4. “O‘rik gullaganda” she‘ri va g‘azal asosida test topshiriqlari.
5. Xulosa.

Hamid Olimjonning hayot va ijod yo‘li (1909-1944)

Hamid Olimjon XX asr o‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri. U o‘zining lirik she‘rlari, dostonlari, dramatik asarlari bilan adabiyotimizning sahifalaridan munosib o‘rin egalladi.

Hamid Olimjon **1909-yil 12-dekabrda** Jizzax shahrida dunyoga keldi. U to‘rt yoshga to‘lganda otasi Olimjon aka vafot etdi. **Azim bobo** Jizzaxning xatli-savodli va obro‘-e‘tiborli kishilaridan bo‘lib, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li Xatirchidan jizzaxlik yoru do‘stlarini yo‘qlab tushganda, uning xonadonida ham bo‘lar edi. Shunday paytlarda Abdulhamid bobosi pinjiga o‘tirib, navqiron baxshining do‘mbira jo‘rligida aytgan dostonlarini qiziqib tinglar edi. Onasi **Komila aya** ham xalq ertaklarini yaxshi bilardi. Bo‘lajak shoir uzun qish kechalarini onasining «Yoriltosh», «Oygul va Baxtiyor», «Tohir va Zuhra» haqidagi sehrli ertaklarini tinglab o‘tkazgan. Keyinchalik onasi aytgan ana shu ertaklar H.Olimjonning shoir bo‘lib yetishuvida zamin vazifasini o‘tadi.

1916-yildagi Jizzax qo'zg'oloni Abdulhamidni go'zal ertaklar olamidani yulqib olib, feodal asrning o'tli nuqtalaridan biriga tashladi. Qo'zgonni bostirish uchun kelgan jazo otryadi aholining kichik bir qismini qilichdan o'tkazib, qolgan qismini jazirama dashtga haydadi. Shaharni to'pga tutib, shu jumladan, H.Olimjonlar yashagan qo'rgonni ham yer bilan yakson qilishdi. Azim bobo bilan farzandi Ahmadjon esa Rossiya shaharlariga mardikorlikka yuboriladi. «Men bir kora kunda tug'ildim. Tug'ildim-u shu on bo'g'ildim» kabi misralar shunday paytlarda oq qog'ozga to'kilgan bo'lsa, ne ajab.

1917-yilda avval fevral inqilobi, keyin oktabr to'ntarishi yuz berdi. Abdulhamid Jizzaxda ochilgan Narimonov nomidagi to'liqsiz o'rta maktabni tugatib, Samarqanddagi o'zbek bilim yurtida o'qishni davom ettirdi. U yerda **S.Ayniy, A.Shakuriy, Hoji Muyin, L.Vyatkin** kabi olimlardan tahsil oldi va bu saboqlar uni she'r mashq qilishga ilhomlantirdi. 1928-yilda O'zbekiston Oliy pedagogika institutining iqtisod fakultetida o'qishni davom ettirdi.

1929-yilda birinchi she'rlari to'plami «**Ko'klam**» nomi bilan bosilib chiqdi, yana «Tong shabadasi» hikoyalar to'plamini e'lon qildi. 1931-yilda Hamid Olimjon «Qurilish» jurnaliga mas'ul kotib qilib tayinlandi.

Poytaxt Toshkentga ko'chib kelishi munosabati bilan Hamid Olimjon 1931-yil avgustda «Yosh leninchi» gazetasida mas'ul kotib bo'ldi. Shoirning «**Olov sochlar**» (1931), «**Poyga**», «**O'lim yovga**» (1932), «**Daryo kechasi**» (1936), «**She'rlar**» (1937), «**O'lka**», «**Oygu bilan Baxtiyor**» (1939) va «**Baxt**» (1940) she'riy to'plamlari, dostonlari, tarjimalari e'lon qilindi. 1939-yilda u Yozuvchilar uyushmasiga mas'ul kotib qilib tayinlandi.

Shoir **1944-yil 3-iyul** kuni baxtsiz tasodif tufayli olamdan ko'z yumdi.

Shoir lirikasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari

Hamid Olimjon she'riy ijodini o'z avlodining kayfiyatini kuylashdan boshladi. Hamid Olimjon shoir sifatida insonning tuyg'u va kechinmalarini ifoda etuvchi yorqin she'rlar yaratdi.

Hamid Olimjon lirikasi ikki irmoqning tutashuvidan hosil bo'lgan hodisa. Birinchisi, shoirning davr tafakkuri va qarashlariga yo'g'rilgan lirik

merosidir. 20-yillarning so'ngi va 30-yillarning boshlarida Hamid Olimjon sarbast she'rga murojaat qildi. U V.Mayakovskiyning badiiy

tajribalariga suyanib, o'z ijodiga davrning muhim ijtimoiy g'oyalarini ochishga intildi va shu maqsadda sərbast she'rdan foydalandi. Shoirning «Nima bizga Amerika», «Tarix ko'rganmi?», «Temir qonun», «Mudofaa kunlarida» kabi she'rlarida faol g'oyaviy kurashchanlik aks etgan. Bu she'rlarda bugungi kun nuqtai nazaridan to'g'ri bo'lmagan qarashlar mavjud. Lirik qahramon o'z sevgisini yangi tuzumga, yangi g'oyalarga qaratgani holda o'tli g'azab va nafratini ham sochadi. Shu davrda yozilgan «O'lim yovga» dostonida mana shu g'oyalar, xalq dushmanlariga qarshi nafrat asar pafosi darajasiga ko'tarilgan.

Hamid Olimjonning **1932-yilda** Farg'ona vodiysi bo'ylab safari taassurotlari asosida yozilgan asari «**Baxtlar vodiysi**» balladasidir. Bu balladada shoir Farg'ona dalalariga kelgan bahor tasviri orqali sho'rolarning bahorini tasvirlamoqchi bo'ladi:

Ko'm -ko'k

Ko'm - ko'k

Ko'm- ko'k

Balladaning naqarotida ko'klam obrazi chizilgan. Bu yerda nafaqat butun Farg'ona vodiysi, balki butun sho'rolar mamlakati ko'm- ko'k bo'lib ko'rinadi:

Barcha yaproqlari

Birday ko'kargan.

Novdalari jonli bu noyob bahor.

Qarashlari nurga to'lgan

Bu ulug' vodiylar ko'm-ko'k!...

Shoirning vatan mavzuidagi she'rlari ham alohida tizimni tashkil etadi:

Qulog'imga noming kirganda

Qumlik kabi tashna boqurman.

Sening jannat vodiylaringda

Nahrlarday to'lib oqurman.

«O'lka» she'ridan olingan bu misralarda haqiqiy vatanparvar siymosi yaraqlab turibdi. Shoir lirikasida samimiy his va kechinmalar avj nuqtaga ko'tarilgan.

Hamid Olimjonning boshqa shoirlardan farqi shundaki, uning muhabbatida ham, nafratida ham porloq alanga bor.

Hamid Olimjon XX asr o'zbek she'riyatida Cho'lpondan keyin birinchilardan bo'lib, insonning boy va go'zal ruhiy olamini nafis



bo‘yoqlar bilan tasvirladi. Uning 1939-yildan keyingi ijodida lirik qahramonning ichki olami barcha jilvalari bilan aks eta boshladi. Sarbast she‘r o‘rnida barmoqning latifligi, yalang‘och g‘oyalar o‘rniga tuyg‘ular nafosati yuzaga chiqdi. Umuminsoniy kechinmalarni tasvirlash jarayonida Hamid Olimjon iste‘dodining yangi qirralari namoyon bo‘la boshladi:

Tog‘da yurar ohu bir juvon,
Sochimni taraydi shabboda
Menga bugun yaqindir osmon
Bulutlardan tepamda poda.

Hamid Olimjonning urush davrigacha bo‘lgan ijodida «Ofeliyaning o‘limi», «Holbuki tun», «Ishim bordir o‘sha ohuda», «Har yurakning bir bahori bor», «Janub kechasida», «Xayoling-la o‘tadi tunlar», «Mizimta daryosi», «Butun olam bir oppoq siyna», «Daryo tiniq, osmon beg‘ubor», «Dunyo go‘zal ko‘rinur menga», «Eng gullagan yoshlik chog‘imda» kabi o‘nlab lirik durdonalar bor. Bu she‘rlarda shoir ruh musavviri sifatida lirik qahramonning nozik tuyg‘u va kechinmalarini mohirona tasvirladi.

O‘qituvchi Hamid Olimjon ijodi haqida muxtasar so‘zlab bergandan so‘ng, shoir ijodidan yod biladigan talabalardan she‘r so‘raydi. She‘rlar aytilgach, o‘qituvchi she‘r aytgan talabalarni rag‘bat kartochkalari bilan taqdirlaydi va shoir haqidagi ma‘lumotlarni yana o‘zi kengaytiradi. Bunda quyidagicha jadvallarni videoprektor orqali namoyish etadi.

1-jadval:

| | | |
|---|---|---|
|  | <p>Hamid Olimjon (1909-1944)</p> |  |
|---|---|---|

| | | |
|-----------------------------|---|----------|
| 1909-yil 12 dekabrda | Jizzax shahrida ziyoli oilasida tug‘ilgan. | |
| Ilk she‘riy kitobi | “Ko‘klam” | 1929 yil |
| Hikoyalar to‘plami | “Tong shabadasi” | 1930 |
| To‘plamlari | “Olov sochlar”, “Poyga”, “O‘lim yovga”, “Daryo kechasi”, “She‘rlar”, “O‘lka”. | |
| Dostonlari | “Zaynab va Omon”, “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod” | |
| Balladalari | “Roksananing ko‘z yoshlari”, “Jangchi Tursun”. | |
| Dramatik asarlari | “Muqanna”, “Jinoyat”. | |
| Mashhur she‘rlari | “Eng gullagan yoshlik chog‘imda”, “Ishim bordir o‘shal ohuda”, “O‘lka”, “O‘zbekiston”, “Daryo tiniq, osmon beg‘ubor”, “O‘rik gullaganda”, “Xayolimda bo‘lding uzun kun”. | |
| Mashhur misralari | “Derazamning oldida bir tup o‘rik oppoq bo‘lib gulladi”, “Sening jannat vodiylaringda nahrlarday to‘lib oqurman”, “O‘xshashini topmasdim aslo”, “Shaftolizor bog‘larni ko‘rdim, Gul ko‘kargan tog‘larni ko‘rdim”. | |

2-jadval.

| HAMID OLIMJON HAQIDAGI FIKRLAR | |
|---------------------------------------|--|
| Adabiyotshunos Naim Karimov | Hamid Olimjon o‘z lirikasi, Nekrasov aytmoqchi, fikr nasrni, hayotbaxsh qudratga ega bo‘lgan fikr va g‘oyalarni yuksak she‘riyat bilan uzviy ravishda birlashtira oladi. Uning lirikasida fikr va kechinmalar kitobxon qalbini hamisha maftun etuvchi, unga estetik zavq bag‘ishlovchi, uni nafosatning ilohiy olamiga olib kiruvchi shaklga egadir. |
| Yozuvchi va shoir Asqad Muxtor | Hamid Olimjon Sharqning eng yirik liriklaridan. U lirikaning kuchiga chuqur ishonch bilan qaradi, o‘zining barcha janrdagi asarlarini lirikaning nafis sehri bilan sug‘ordi. |
| | |

| | |
|---|--|
| O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov | Hamid Olimjon lirikasi boshqa birorta shoirning lirikasiga o‘xshamaydi. Bu lirika marmar kabi tiniq, lekin sovuq emas. Unda tasvir ham, ohang ham bo‘lakchadir... Hamid Olimjonning she‘riy misralarni sayqallash ustida bahodirona ter to‘kish mahorati hali necha-necha avlod shoirlariga ibrat bo‘lib qolgusidir. |
| 3-jadval HAMID OLIMJON HAQIDAGI she’rlar | |
| Zulfiya. “Bahor keldi seni so‘roqlab” | Salqin saharlarda, bodom gulida, Binafsha labida, erlarda bahor. Qushlarning parvozi, ellarning nozi, Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor... |
| Erkin Vohidov. “Shoirni eslab” | Yana bahor keldi gul vodiylarga, Yana sarin ellar to‘zg‘itdi sochim. Sen qarshi olgandek bahorni har gal, Ko‘klam quyoshiga bag‘rimni ochdim. |
| Erkin Vohidov. “Vafo” dostoni | Meni barhayotsan, deding shoiram, Yorug‘ dunyodagi hayotim o‘zing. Men uni nogihon Tark aylagan dam Qoldirgan baytimu bayotim o‘zing. |
| Abdulla Oripov. “Hamid Olimjon xotirasiga” | O‘rik gullaganmish kechagi tunda Bahor mujdasi bu, quvongil ey jon... |

Hamid Olimjon ijodi bo‘yicha BBB usuli

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|--|---|--|
| H.Olimjon o‘zbek she‘riyatining yorqin vakillaridan biri. “O‘zbekiston”, “O‘rik gullaganda”, “Eng gullagan | Adabiyotshunoslikda shoir ijodini o‘rganilish. H.Olimjon haqida qaysi ijodkorlar qanday janrlarda asarlar | Adabiyotshunosligi mizda S.Azimov, N.Karimov, O.Safarov kabi olimlar H.Olimjon ijodini o‘rganishgan. |

| | | |
|--|---|--|
| <p>yoshlik chog‘imda” kabi mashhur she’rlar, “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurg‘” dostonlarining muallifi</p> | <p>yoziqlgan? “O‘rik gullaganda” she’rining umrboqiy asar ekanligining sababi nimalarda ko‘rinadi. Shoir yana qanday adabiy janrlarda ijod qilgan</p> | <p>Shoirlga bag‘ishlab E.Vohidov “Vafo” dostonini, A.Oripov “H.Olimjon xotirasiga” kabi asarlarni yaratishgan. “O‘rik gullaganda” shoir ijodidagi shoh asarlardan biri. Chunki unda inson qalbi manzaralari hayotiy va tabiatdagi holatlar bilan vobastalikda ochib berilgan. Shoir ballada (“Jangchi Tursun”, “Roksananing ko‘z yoshlari”), she’riy drama (“Muqanna”) janrlarida ham ijod qilgan.</p> |
|--|---|--|

«Zakovatli zukko» metodi

H.Olimjon ijodi bo‘yicha tezkor savollar

1. H.Olimjon qachon qayerda tug‘ilgan?
2. Uning bolalik yillari haqida gapiring.
3. H.Olimjonning shoir bo‘lishiga ta’sir etgan omillar nimalarda iborat?
4. Shoir she’rlari nomini ketma-ketlikda keltiring.
5. “Shaftolizor bog‘larni ko‘rdim...” Misralarni davom ettiring.
6. Shoir she’riyatdagi asosiy mavzular qaysilar?
7. Shoirning umr yo‘ldoshi haqida nimalarni bilasiz?
8. Zulfiya shoirga atab qaynday asarlar yozgan?
9. Shoir she’rlaridan yod ayta olasizmi?
10. Shoir yana qanday adabiy janrlarda ijod qilgan?
11. “Xalqqa ayting men ayting, men aslo o‘lganim yo‘q”. Satrlarni

davom ettiring. Bu parcha qaysi asardan olingan?

12. “Qulog‘imga noming kirganda

Qumlik kabi tashna boqurman.

Sening jannat vodiylaringda

Nahrlarday to‘lib oqurman” misralari qaysi she‘dan olingan, unda qanday badiiy san‘atlar qo‘llangan?

Ushbu usul o‘qituvchiga talabalar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda yordam beradi.

“O‘rik gullaganda” she‘ri va g‘azalni yangicha usulda o‘rganish yo‘llari

“O‘rik gullaganda” she‘ri shoir ijodining eng yorqin namunalaridan biridir. She‘r 1937 yilda yozilgan. Unda lirik qahramon qalbidagi kechinmalar tabiatdagi holatlar bilan uyg‘unlikda ochib berilgan. Bu she‘r o‘zbek diyoriga keluvchi bahor nashidasining madhi sifatida yangrab keladi. Unda faqat bahor tasviri chizilgan emas. Shoir bunda qiyosiy tasvir san‘atidan foydalanib, o‘rik gullari bilan lirik qahramonning baxti o‘rtasida uyg‘unlik ko‘radi. Faqat shabboda va qushlar emas, balki hamma narsa lirik qahramonning baxtiyor ekanligi haqida roz aytgandek bo‘ladi. Faqat baxtni maqtagan ovoz u yurgan bog‘larni to‘ldirib yuboradi. Ana shu tarzda chaman birlib ochilgan o‘rik gullari baxt mavzusi bilan tutashib, katta falsafiy ma‘no kasb etadi.

Shu o‘rinda she‘r matni o‘qituvchi tomonidan yoddan va ifodali o‘qib beriladi.


Terezamning oldida bir tup
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...
Novdalarni bezab g‘unchalar
Tongda aytdi hayot otini
Va shabboda qurg‘ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.
Har bahorda shu bo‘lar takror,
Har bahor ham shunday o‘tadi.
Qancha tirishsam ham u beor
Ellar meni aldab ketadi.
Mayli deyman va qilmayman g‘ash,

Xayolimni gulga o‘rayman.
 Har bahorda chiqqanda yakkash,
 Baxtim bormi deya so‘rayman.
 Yuzlarimni silab siypalab
 Baxting bor deb esadi ellar.
 Etgan kabi go‘yo bir talab,
 Baxting bor, deb qushlar chiyillar.
 Hamma narsa meni qarshilar,
 Har bir kurtak menga so‘ylar roz.
 Men yurganda bog‘larga to‘lar
 Faqat baxtni maqtagan ovoz:
 “Mana senga olam-olam gul,
 Etagingga siqqanicha ol.
 Bunda tole har narsadan mo‘l,
 To o‘lguncha shu o‘lkada qol.
 Umrida hech gul ko‘rmay yig‘lab
 O‘tganlarning haqqi ham senda.
 Har bahorni yig‘lab qarshilab
 Ketganlarning haqqi ham senda...”
 Terezamning oldida bir tup
 O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...

She‘r mazmunini tushuntirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin.

She‘rni “**Klaster**” usuli asosida ham o‘rganish qulay. Jumladan, “O‘rik gullaganda” she‘ridagi poetik obrazlar obrazlar asosida talabalar tomonidan tayyorlanadi:





G‘azal

Na bo‘lg‘ay bir nafas men ham yonog‘ing uzra xol bo‘lsam,
 Labing yaprog‘idan tomgan ki go‘yo qatra bol bo‘lsam.
 Butog‘ingga qo‘nib bulbul kabi xonish qilib tunlar,
 O‘pib g‘unchangni ochmoqlikka tong chog‘i shamol bo‘lsam.
 Bo‘yingni tarqatib olamni qilsam mastu mustag‘riq,
 O‘zimning san‘atinga so‘ng o‘zim hayratda lol bo‘lsam.
 Sening birla qolib bu mastu hol olamda men yolg‘iz,
 O‘zimni ham topolmay, mayliga, oxir xayol bo‘lsam.
 Agar bog‘ingda gul bo‘lmoq mening-chun noravo bo‘lsa,
 Ki ming bor roziman qasringga, hattoki duvol bo‘lsam.
 Boshim hech chiqmasa mayli malomat birla bo‘htondan,
 Raqiblar rashkiga ko‘krak keray, mayli, qamol bo‘lsam.
 Kezib sahroyu vodiylar etishsam bir visolingga.
 Fido jonimni qildim yo‘lingga, mayli, uvol bo‘lsam.

Sof ishqiy mavzudagi “Bo‘lsam” radifli g‘azali 1943 yilda yozilgan. 7 baytdan iborat bu g‘azal shoirning mumtoz adabiyot an‘analarini o‘ziga xos usulda davom ettirganligidan nishonadir. G‘azal mumtoz adabiyotda keng qo‘llangan aruzning *hazaji*


musammani solim tarmog'ida bitilgan. Baytdan baytga o'tgani sari poetik fikr rivojlanib boradi. Binobarin, dastlabki bayt matla' bo'lib, unda lirik qahramon haqiqiy oshiq timsolida gavdalanadi. Mazmuni: oshiq bir nafas bo'lsa-da ma'shuqaning yonog'i uzra xol, labining yaprog'idan tomgan qatra bol bo'lishga tayyor. Bunda lab yaprog'i shoirning betakror istiorasi. Chunki labning shakli yaproqqa o'xshaydi.


Ikkinchi bayt: demak, lab yaproq ekan, u daraxtning bir qismi. Lirik qahramon shu daraxtning butog'ida bulbul bo'lib xonish aylashga, bu yo'lda hatto g'uncha labni ochish uchun shamol bo'lishga tayyor. Demak, she'rdagi an'anaviy obraz bulbul hisoblanadi.

Beshinchi baytda oshiq nihoyatda xokisor tarzda namoyon bo'ladi: ma'shuqaning bog'ida gul bo'lishga o'zini loyiq emas deb o'ylayapti oshiq. Shu bois ma'shuqa qalbi qasriga devor bo'lishga ham rozi.

So'nggi bayt fidoiy oshiq qiyofasini yanada yorqinroq namoyon etadi. Oshiq visol uchun jonini ham fido etmoqchi. Maqta' ana shunday xulosaviy fikr bilan yakun topadi.

Tahlildan so'ng g'azaldagi badiiy timsollar va san'atlar quyidagicha tahlil etiladi.





“О‘рик gullaganda” she’ri va g‘azal asosida test savollari

1. Bir tup o‘rik obrazi qanday ma’no tashiydi?

A) Bahor timsoli bo‘lib keladi.

B) Erta bahorda o‘rikning oppoq bo‘lib gullashi yoshlik, muhabbat zavqi bilan to‘lib toshgan lirik qahramon tuyg‘ularini yuzaga chiqaruvchi vositaga aylangan.

S) Tabiat va inson kechinmalari uyg‘unligini ifoda etadi.

D) Peyzaj lirikasi namunasi.

2. Nima uchun shoir shabbodaga nisbatan “qurg‘ur” sifatlashini qo‘llaydi?

A) Chunki erda tongda endigina ko‘z ochgan g‘unchalarni shamol to‘kadi.

B) Tabiatdagi o‘zgarishlar ifoda etilgan.

S) Tabiatda ham yashash uchun kurash jarayonlari kechadi. G‘uncha ham gul bo‘lay intiladi.

D) A, S to‘g‘ri.

3. A.Oripovning H.Olimjonga bag‘ishlangan she’ri qanday boshlanadi?

A) “Bahor mujdasi bu, quvongil ey jon”.

B) “O‘rik gullaganmish kechagi tunda”.

- S) “Novdalarni bezab g‘unchalar”.
- D) “Umrida hech gul ko‘rmay yig‘lab”.
4. Nega lirik qahramon bahordan baxti haqida so‘raydi?
- A) Sababi, bahor yasharish, go‘zallik, yoshlik faslidir.
- B) Bahor va baxtni uyg‘unlikda ko‘radi.
- S) Bahor ellari qanotida yoshlik, go‘zallikni ko‘radi.
- D) Bahor yashillik fasli.
5. Nega shoir aynan g‘uncha timsoliga murojaat etgan?
- A) Tabiatdagi o‘zgarishlarni ifoda etgani uchun.
- B) G‘uncha muhabbat, yoshlik, go‘zallik timsoli sifatida kelgan.
- S) Bahorni ifodalab keladi.
6. Umrida hech gul ko‘rmay yig‘lab
O‘tganlarning haqqi ham senda.
Har bahorni yig‘lab qarshilab
Ketganlarning haqqi ham senda...” satrlarida qanday poetik fikr ilgari surilgan?
- A) Bahorning abadiyligi, inson umrining esa sarhadli ekanligi.
- B) Yaqin o‘tmish kishilari obrazini ifodalab keladi.
- S) Yaqin o‘tmish manzaralarini ko‘z oldiga keltiradi. Gul bu joyda ramziy mazmunga ega, ya’ni umrida yaxshi kunlarni ko‘rmay yashab o‘tgan insonlar timsoli badiiy gavdalantirilgan.
- D) Inson umrining davomiyligini bildiradi.
7. G‘azalning taqte’si to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.
- A) foilotun, foilotun, foilun
- B) mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun
- S) mustaf’ilun, mustaf’ilun, mustaf’ilun
- D) foilotun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun.
8. G‘azaldagi qofiyadosh so‘zlar qaysi va ular baytlar aro qanday ma’no tashiydi.
- A) Xol, lol, shamol, xayol, duvol, qamol, uvol. Bu so‘zlar g‘azaldagi ohangdoshlikni, musiqiylikni ta’minlashdan tashqari lirik qahramon oshiqning fidoiylik, sadoqat singari xususiyatlarini yorqinlashtirishga xizmat qilgan.
- B) Butog‘ingga, san’atimga, bog‘ingda, rashkiga.
- S) Bo‘lsam, xol, lol, shamol, xayol, duvol.
- D) G‘azaldagi qofiyadosh so‘zlar ohangdorlikni ta’minlab keladi.
9. “Butog‘ingga qo‘nib bulbul kabi xonish qilib tunlar”

misrasida qanday badiiy san'at qo'llangan?

- A) Tashxis
- B) Tashbeh, bulbul kabi
- S) Intoq
- D) Mubolag'a.

10. "Garchi yillar changi har nega qodir,
Meni qilolmadi yodingdan nari.

Yana huzuringda turibman, shoir,

Qo'limda bir quchoq bahor gullari". Quyidagi satrlar kimning qaysi asaridan olingan?

- A) A.Oripov. "O'rik gullaganmish kechagi tunda".
- B) E.Vohidov. "Vafo".
- S) Zulfiya. "Bahor keldi seni so'roqlab".
- D) H.Olimjon. "O'rik gullaganda".

Test javoblari

1. B. 2. D. 3. B. 4. A. 5. D. 6. S 7. B. 8. A. 9. B. 10. B.

Xulosa

Hamid Olimjon XX asr adabiyotining yorqin namoyandalaridan biridir. U o'zining samimiy tuyg'u va kechinmalarga to'liq she'riyati bilan o'z nomini adabiyotimiz sahifalariga muhrlay oldi. Yuqorida tahlil etganimiz shoirning "O'rik gullaganda" nomli mashhur she'ri va g'azallari tahlili mazkur fikrlarimizning to'g'ri ekanligini asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Алиев А. Истиқлол ва адабий мерос. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
4. Каримов Н., Мамажонов С. ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1999.
5. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.
6. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008.

Н.Олимjon asarlari:

7. Ҳамид Олимжон. МАТ. 10 жилдлик. – Т.: 1981-82.

8. Ҳамид Олимжон. Дарё каби уйғоқ ўтурман. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2009.

Н.Олимжон haqidagi tadqiqotlar:

9. Каримов Н. Ҳамид Олимжон. – Т.: Ёш гвардия, 1980.

10. Каримов Н. Ҳамид Олимжоннинг поэтик маҳорати. – Т.: Fan 1984.

11. Азимов С. Сайланма. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.

12. Умуров Ҳ. Барҳаёт сулола. – Т.: Наврўз, 2017.

Internet saytlari:

13. www.alishernavoiy.uz

14. www.ziyo-net.uz

15. www.literature.uz

16. www.kutubxona.uz.

MAVZU: SAIDA ZUNNUNOVA IJODI. “RUH BILAN SUHBAT” DOSTONI



Reja:

1. S.Zunnunova hayoti va ijodiga chizgilar.
2. Saida Zunnunovaning “Ruh bilan suhbat” dostonining g‘oyaviy yo‘nalishi va o‘ziga xos badiiyati.
3. Dostonni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘tishni tashkil qilish yo‘llari.
4. Dostonni o‘rganishda savol va topshiriqlardan foydalanish.
5. Xulosa.

Saida Zunnunova hayoti va ijodiga chizgilar (1926-1977)

1926 yilning 15 fevralida Andijon shahrida xizmatchi oilasida tug‘ilgan. Atoqli o‘zbek adibi Said Ahmadning umr yo‘ldoshi.

Saida Zunnunova Andijon shahridagi 30-maktabni tugatgach, Andijon davlat o‘qituvchilar institutida o‘qidi. Maktablarda muallimalik qildi. “Kommunist” gazetasi tahririyatida ishladi. Ilmga chanqoq va adabiyotga mehri baland bo‘lgan shoira 1947-1952-yillarda Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetida ta’lim oldi. Uzoq yillar davomida turli matbuot organlarida faoliyat ko‘rsatdi.

S.Zunnunova o‘n ikki yoshida ilk she‘rini yozadi. **Ilk she‘ri** – “Salom senga” 1945-yili Andijon viloyatining “Paxta fronti” gazetasida bosilgan.

Shoiraning ijodiy faolligi dorilfununda tahsil olayotgan chog‘larida yanada oshdi. Bu erdagi ijodiy jarayon, Toshkentdagi adabiy muhit yosh shoiraning qobiliyatlarini yanada ochib yubordi. Talabalik yillaridayoq birin-ketin shoiraning «Qizingiz yozdi» (1948),

«Yangi she'rlar»(1950) to'plamlari kitobxonlar hukmiga havola qilindi. Bundan keyingi yillarda Saida Zunnunovaning yigirmaga yaqin she'riy va nasriy kitoblari maydonga keldi.

1-she'riy kitobi: “Qizingiz yozdi”. Bu nomni shoira kitobiga G‘afur G‘ulom qo‘yib bergan. Shoiraning kamoloti, ijodining tabiati, takomili haqida ustoz G‘afur G‘ulom yozgan edi «Saidaning birinchi kitobini o‘qib, «Qizingiz yozdi» deb nom qo‘yib berganman. Xalkimizning Saidaga kilgan yaxshi niyati bekor ketmadi. U xotin-qizlarga xos nazokat, iforli lirikasi bilan dillarimizni erkalab, hordiklarimizni yozib, mehnatga rag‘batimizni toblantiradigan, idrokimizni go‘zalliklar tomon yetaklaydigan fahmli shoiramiz bo‘lib etishdi».

Dostonlari: “Sodiq va Anor”, “Xayrixon”, “**Surat bilan suhbat**” (Onasiga bag‘ishlangan. Unda ona kechinmalarini ifodalagan), “Qo‘shnilarim”.

To‘plamlari: “Yangi she'rlar”, “Gullar vodiysi”, “Qizlarjon”, “Bir yil o‘ylari”, “Nilufar”.

Hikoya va qissalari: “Gulbahor”, “Gulxan”, “Do‘stlik”, “Qanot”, “Olov”, “Ko‘chalar charog‘on”, “Bo‘ylaringdan o‘rgilay”.

Pesalari: “Ona”, “Ko‘zlar”.

She'rlari: “Qizimga”, “Yer uzra qo‘ndi oqshom”, “Mening Vatanim”.

Shoira aforizmi: “Bosh toshdan bo‘lsa ham, yurak toshdan bo‘lmasin” – deydi.

Saida Zunnunovaning “Ruh bilan suhbat” dostonining g‘oyaviy yo‘nalishi va o‘ziga xos badiiyati

XX asrning 50-70-yillarida o‘zbek dostonchiligi yanada takomil topdi. 30-40-yillar dostonchiligining badiiy tajribalari, Oybek, H.Olimjon, G‘.G‘ulom kabi iste‘dodli shoirlar ijodidan boshlangan jarayon shu davrda ancha to‘lishdi. Mirtemir, M.Shayxzoda, Zulfiya, S.Zunnunova, J.Jabborov, H.Sharipov, E.Vohidov, A.Oripov kabi shoirlar 50-60-yillarda doston janrida badiiy barkamol namunalar yaratdilar. Shular orasida Saida Zunnunova dostonlari o‘zining badiiyati, estetik quvvati, salohiyati bilan ajralib turadi. Uning “Ruh bilan suhbat”, “Alla”, “Qo‘shnilar”, “Lirik nutq” singari dostonlari bu jihatdan ahamiyatli. Shoiraning bu dostonlari xarakteriga ko‘ra lirik tipga mansub. Chunki ularda lirik xarakter ustuvor. Bu jihatdan “Ruh

bilan suhbat” dostoni alohida ahamiyat kasb etadi. Unda faqat urush fojialari mavzusi emas, balki “mohiyatan mushtarak bo‘lgan o‘nlab taassurotlar va tuyg‘ular silsilasi aks etadi”. Ular ichidan eng muhimlariga shoir yoki lirik qahramon munosabati bildiriladi. Asar yagona syujetga ega emas. Shu jihatlarga tayanib, “Ruh bilan suhbat”ni lirik dostonlar qatoriga kiritish mumkin. Asarning lirik qahramoni urush qalbini yaralagan munisa ayol. U mash’um urush tufayli turmush o‘rtog‘idan ayriladi va bitta farzandiga ham ota, ham onalik qiladi. Farzandi voyaga etgach, ona uni orzu-havas bilan to‘y qiladi. To‘y tarqagandan so‘ng ayolning uyquasi eltmaydi. Lirik qahramon qalbidagi bor dardlari, his-kechinmalarini uy to‘ridagi suratga to‘kib soladi. Ana shu iztirobli kechinmalar tarxi, tuyg‘ular tarixi asar voqealari tadrijini tashkil etadi. Bu lirik dostonlarda ko‘zga tashlanadigan eng muhim janr xususiyatlaridan biridir. Chunki shular vositasida real hayot manzaralari kitobxon ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi. Demak, devorga ilig‘lik surat ayolning urushda qahramonona halok bo‘lgan turmush o‘rtog‘ining rasmi. Asar qahramoni shu surat poyiga guldasta qo‘yib, ko‘nglidagi orzu-armonlarini bayon etadi:

Sarupo kiymading qaynata bo‘lib,
Hech yo‘qsa, gullardan bo‘lgin bahramand.
Odam keldi bugun hovlingga to‘lib,
Farzanding yoniga qo‘shildi farzand¹...

Zero, turmush o‘rtog‘ining qaynata sifatida sarupo kiyishi lirik qahramonning orzusi edi, biroq mash’um urush uni armonga aylantirdi.

Urush yillarida belida quvvati, yuragida shijoati bo‘lgan yigitlar jangga jo‘nadilar. Ular vatanni fashizm zulmidan ozod qilish yo‘lida jon olib, jon berdilar. Ko‘plari jang maydonlarida “alvon lolalar”ga aylandilar, ona tuproqqa qaytmadilar. Saida Zunnunova dostonida yuz ko‘rsatgan timsol ana shunday mard yigitlar ruhi hisoblanadi. Lirik qahramon dardlariga oshno tutinar ekanmiz, A.Oripov kuylagan sadoqatli ayol obrazi ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Bir umr turmush o‘rtog‘ini kutib yashagan bevaning dardlari ummon qadar. Darhaqiqat, adabiyotshunos N.Rahimjonov o‘rinli ta’kidlaganiday, hayot voqeligi, kechmish lirik qahramon – ayolning qalb prizmasidan

¹ Зуннунова С. Танланган Асарлар.- Тошкент, 1976, 306-б. (Кейинги парчалар шу манбадан олинади ва қавс ичида бети кўрсатилади).

o‘tib, his-tuyg‘u, kechinmalari orqali aks etgan:

Seni izlayverib holdan toydim men,
Seni izlayverib qarib qoldim men...
Xayolim izlashdan, ko‘nglim bo‘zlashdan,
Seni axtarishdan sira tolmadim (307-b).

Lirik qahramon so‘zlaridan ma’lum bo‘ladiki, u turmush o‘rtog‘ini izlashga tushadi va “oq qayin ostida tanho” turgan qabrga duch keladi. Garchi u qabr turmush o‘rtog‘iniki bo‘lmasa-da, biroq taqdiri tutash edi. Lirik qahramon umr bo‘yi turmush o‘rtog‘ining xayoli bilan yashaydi:

Bir nafas qo‘ymadim men seni yolg‘iz,
Bir dam tanholikka tashlaganim yo‘q.
Sensiz yig‘lamadim, kulmadim sensiz,
Sensiz ko‘nglimni ham xushlaganim yo‘q.

E’tirof, iqror usuli poetik ifoda tarzida yetakchi o‘rin tutgan. Va shu tariqa lirik qahramon kechinmalari urush yillari ayollarining qalb nidosi bo‘lib yangraydi. Shu asosda surat tilga kiradi va doston voqealari dialog vositasida inkishof etadi. 50-70 yillar dostonlarining muhim jihatlaridan yana biri – bu dialoglarga singdirilgan psixologik kechinmalar tarangligidir. “Ruh bilan suhbat”da dialog usuli yetakchilik qiladi. Surat va onaning xayoliy suhbatlari asosida kitobxon ko‘z o‘ngida urush fojialari, yetim qolgan go‘daklar, beva ayollar qismati, shaxs va insoniyat taqdiri tarzida badiiy tadqiq etiladi. Ona front orqasida turib kechani kecha, kunduzni kunduz demay ishlagani, shodligu qayg‘usi bir bo‘lgan ayollar haqida so‘zlasa, surat esa yetimlik qismati, urush maydonlaridagi qahramonliklardan so‘ylaydi. Lirik qahramon va surat orasidagi suhbatlar urush yillari voqeligining dahshatli manzaralarini tasavvur etishga yordam beradi.

Asarda qahramon ruhiyatining rangin manzaralari chizilishi tufayli unda psixologizm bo‘rtib turadi. Bu esa dostonidagi yana bir muhim jihatlardan biridir. Zero, ona endi “dada” deya boshlagan o‘g‘li haqida entikib gapirar ekan, qalbini bir og‘ir dard kemiradi:

O‘g‘ling o‘sar edi, “dada, dada”, deb,
Talpinib qolganda suratingga goh
Men esa o‘kinchdan ich-etimni eb,
Xo‘rsinib ko‘ksimga bosardim, evoh!
Entikib o‘pardim sochi, yuzidan,
Bag‘rin to‘latmoqni qilardim xayol (312-b).

Farzandi “dada” degan paytdagi ayolning o‘kinchlari, xo‘rsinish, entikishlari, ya’ni turli ruhiy holatlar lirik qahramon qalbini ezayotgan dardni – otasizlik, etimlikni yuzaga chiqaradi. Ona urush yillari etimligi haqida mung bilan so‘zlaydi. Biroq surat bayon etgan etimlik qismati nihoyatda ayanchli:

Yetimlik nima gap, shu murg‘ak jonlar –
Ko‘ksiga beayov otishgan-ku o‘q.
(Joningdan aylanay, oh, bolajonlar,
Unutib bo‘larmi u kunlarni? Yo‘q!)
O‘ziga niqtalغان to‘pponchani ham
O‘yinchoq deb bilgan mitti qo‘lchalar –
Shalpayib tushganda qandayin alam.

Shoira shu o‘rinda surat tilidan onaning etimlik haqida armon bilan so‘zlagani bolalarni otib tashlashdek dahshatli voqea oldida hech narsa emasligini ta’kidlaydi. Binobarin, jangchi shohidligida sodir bo‘lgan bunday fojialar uning ruhini hamisha bezovta qilib turadi. Zero, shoira insoniyat dardi, bashariyatning armonini kuylamoqda. Suratning so‘zlarini eshitish juda og‘ir. Chunki bu so‘zlar uning yodiga achchiq xotiralarni soladi. Shu bois suratga lirik qahramon uni tinglashga kuchi etmasligini aytadi. Surat esa ayolni kelajakdan ogoh etadi, uni hushyor bo‘lishga chorlaydi:

O‘zing gap boshlading, endi quloq sol,
Hali tug‘ilmagan nabirang uchun
U kunni unutma, doim esga ol,
Qalbingda hamma vaqt saqlagin o‘chin.
Haqqing yo‘q beparvo bo‘lishga bir dam,
Hech kimning haqqi yo‘q, tingla quloq ber,
Ovoz kelyaptimi olisdan, erdan

Ona

Sezyapman. Nahotki tilga kirdi er?!

Surat

Bu bizmiz, azizim, qo‘l ushlab bot,
Chirmashib yotibmiz ona tuproqqa.

Asardagi shu epizod Erkin Vohidovning “Nido” dostonidagi lavhalarni esga soladi.

S.Zunnunova ham, E.Vohidov ham Vatan va xalq ozodligi, tinchligi uchun jonini fido etganlar haqida yonib kuylar ekan, ular “chirmashib yotgan” tuproq muqaddas ekanligini, uni hamisha

asrashga har bir qalbi uygʻoq kishi burchli ekanligini taʼkidlaydi. S.Zunnunova bu tuproqda “koʻksin qalqon qilgan yigitlar, chollar, bevaqt xazon boʻlgan navnihollar” yotganligini uqtiradi. Zero, E.Vohidov “Ona-Erning koʻksida olovli oh-faryod” deyishida mana shu hayot haqiqati yashiringan. Qayd etish joizki, umuminsoniy tuygʻular “Ruh bilan suhbat” va “Nido” dostonlarini mazmunan birlashtirib turadi.

“Ruh bilan suhbat” dostoni Mirtemirning “Surat” dostoniga mohiyatan yaqin. Ikkala dostonning lirik qahramoni ham surat bilan suhbatlashadi. Biroq bu suratlar ayricha mazmunga ega. S.Zunnunova soʻzlatgan surat urushda mardona halok boʻlgan jangchi yigitga tegishli. Mirtemir tasvirlagan surat esa urush olovlarini ortda qoldirib yurtga sogʻ-omon qaytgan Toshlonga xiyonat qilgan ayolnikidir. Dostonlardagi mushtaraklik lirik qahramon qalbida kechayotgan soʻngsiz tugʻyonlarning suratga toʻkib solinishi bilan belgilanadi. Ayni paytda ikkala dostonda ham hazin lirik ruh hukmron.

Umuman, “Ruh bilan suhbat” asari 60-yillar monolog tipidagi lirik dostonchilik (N.Rahimjonov) taraqqiyotiga munosib ulush boʻlib qoʻshildi. S.Zunnunova dostonlari chuqur lirizm bilan sugʻorilgan. Ularda ayol timsoli davr bilan hamohang holda bir necha qiyofada namoyon boʻladi. “Ruh bilan suhbat”da urush fojialaridan qalbi zada boʻlgan ayolning iztiroblari, quvonchu dardlari kuylansa, “Alla”da esa onaning betakror timsoli chiziladi, ulugʻ zot haqidagi falsafiy fikrlar ilgari suriladi. Umuman, shoira dostonlari bagʻrida ayol va onaning munis, mehrga toʻla chehrasi balqib turadi. Eng muhimi, S.Zunnunova dostonlari oʻtgan asrning 70-yillari oʻzbek lirik dostonchiligini yangi sahifalar bilan boyitdi.

Dostonni yangi pedagogik texnologiyalar asosida oʻtishni tashkil qilish yoʻllari

Taʼlim jarayonida ilgʻor pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim bosqichga kirdi. Ayniqsa, adabiyot mashqʻulotlarida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ulardan keng foydalanish talabalarning mustaqil fikrlashlari va ijodiy tafakkurini kengaytiradi. Jumladan, bu ishni S.Zunnunovanning “Ruh bilan suhbat” asarini kollejlarda oʻrgatishda ham amalga oshirsa boʻladi. Dostonni oʻqitishda turli kitob, rasmlar, illyustratsiyalar, magnitafon, dioproektor, kompyuter slaydlari, maketlardan, jadval va

tarqatma materiallardan ko'rgazmali qurol sifatida foydalanish mumkin.

Dostonni o'qib-o'rganish uchun o'quv dasturida 2 soat vaqt ajratilgan. Bu mashq'ulotni quyidagicha tashkillashtirish mumkin:

Mashq'ulot mavzusi: Saida Zunnunova hayoti va ijodi. "Ruh bilan suhbat" dostonini o'rganish.

Mashq'ulot shiori: "Boshing toshdan bo'lsa ham, yuraging tosh bo'lmasin".

Mashq'ulot maqsadi: a) **ta'limiy:** Shoira hayoti va ijodi hamda "Ruh bilan suhbat" dostonining g'oyaviy mazmuni haqida tushuncha berish; b) **tarbiyaviy:** talabalarga to'g'riso'zlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, kamtarlik, e'tiqodlilik, irodalilik fazilatlarini shakllantirish, ularda vatanga muhabbat tuyg'usini uyg'otish; v) **rivojlantiruvchi:** shoira asarlarini ifodali o'rganish, tahlil qila olish qobiliyatini shakllantirish, og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

Mashq'ulot rejasi:

1. Saida Zunnunova hayotiga chizgilar.
2. Saida Zunnunovaning "Ruh bilan suhbat" dostoni g'oyaviy yo'nalishi bilan tanishish.
3. Dostonning obrazlar tarkibini, badiiy qurilishi va til xususiyatlarini o'rganish.

Mashq'ulot jihozi: videoprojektor, kompyuter, slaydlar, plakatlar, tarqatma materiallar, shoira to'plamlari, qo'llanma va mashq'ulotliklar.

Mashq'ulot metodlari: suhbat, savol-javob, ifodali o'qish, musobaqa o'yinlari, test bilan ishlash, bahru bayt.

O'qituvchi shoira hayoti va ijodi, dostoni haqida videoproektor yordamida talabalarga ma'lumot va tushunchalar beradi. Videoproektor orqali mashq'ulot rejasi, Saida Zunnunova hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar namoyish etiladi.

Talabalardan shoira hayoti va ijodi to'g'risida maktab dasturlari orqali o'rgangan bilimlarini bayon qiladilar, shoira ijodidan yod olgan namunalarini aytib beradilar. Buni musobaqa shaklida tashkil qilish mumkin.

Mashq'ulotlarni noan'anaviy tashkil qilish usullari ommalashib bormoqda. Ushbu usul asosida o'qituvchilar odatda talabalarni **kichik guruhlariga** bo'lishadi. Davra stoli shaklida joylashib olgan talabalar jamoalari o'z guruhlariga mashq'ulot mavzusidan kelib chiqqan holda

quyidagicha nom qo‘yadilar:

1-guruh – “She’riyat oshnolari”.

2-guruh – “Saidaxonim izdoshlari”.

3-guruh – “Vatanparvar”.

O‘qituvchi guruhlardan shoira ijodi haqidagi bilgan ma’lumotlari va uning ijodidan yod olgan she’rlaridan namunalar so‘raydi. Bu taxminan quyidagicha tashkil qilinadi:

O‘qituvchi: Hurmatli talabalar! Siz taniqli shoira Saida Zunnunova ijodini maktab dasturlari orqali o‘rgangansiz. Keling, bugun maktabda olgan bilimlaringizni yana bir karra sinab ko‘ramiz. Qani ayting-chi, shoira hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?

1. “She’riyat oshnolari” guruhi:

Saida Zunnunova elimizning ardoqli shoirlaridan biri sanaladi. U kishi 1926 yil Andijon shahrida xizmatchi oilasida dunyoga kelgan. Otasidan erta etim qolgan. Shunga qaramasdan maktabni a’lo baholar bilan tugatib, 1941 yil Andijon pedagogika institutiga o‘qishga kiradi. 1943 yilda institutni tamomlab muallimlik faoliyatini boshlaydi.

2. “Saidaxonim izdoshlari” guruhi:

Shoiraning adabiyot va san’atga bo‘lgan muhabbati viloyat gazetasi tahririyatiga etaklaydi. Saida Zunnunova “Gulxan” jurnali, “O‘zbekiston madaniyati” gazetasida adabiy xodim, badiiy adabiyot nashriyotida muharrir, hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi bo‘lib ishladi. Shoiraning ilk she’ri “Salom senga” deb nomlanadi.

3. “Vatanparvar”:

Shoiraning ilk she’riy to‘plami mashhur shoir G‘afur G‘ulom e’tiboriga tushgan. Alloma yaxshi niyat bilan to‘plamga “Qizingiz yozdi” deb nom qo‘ygan. Shundan keyin shoiraning birin-ketin “Yangi she’rlar”, “Gullar vodiysi”, “Qizlarjon”, “She’rlar”, “Bir yil o‘ylari”, “Nilufar” kabi she’riy to‘plamlari bosmadan chiqdi. Shuningdek adibaning “Gulbahor”, “Do‘stlik”, “Qanot”, “Olov”, “Ko‘chalar charog‘on”, “Bo‘ylaringdan o‘rgilay” nomli nasriy va publististik kitoblari ham nashr qilindi.

O‘qituvchi: Rahmat, barakalla! Demak, Siz shoira hayoti va ijodi haqida juda ko‘p ma’lumotlarni bilar ekansiz. Bergan ma’lumotlaringiz asosida har uchala guruh 5 ballik rag‘bat kartochkalari bilan taqdirlanadi. Endi aytingchi shoiraning qanday she’rlarini yod ayta olasiz:

1-guruh: “Qizimga” she’rini.

Er uzra qo‘ndi oqshom,

Oy shu’lasi bir mayin.

Kel, oppog‘im, kel, erkam,

Men seni allalayin.

Dudog‘ing guldan xushbo‘y,

Yuzlaring undan xushro‘y.

Kel, oppog‘im bag‘rimga

Jajji boshginangni qo‘y.

Tovuq uxlar qo‘noqda,

Shamol tingan butoqda.

O‘t-o‘lanlar jimgina

Orom olar o‘tloqda.

Yulduz charaqlayapti,

Oy ham yaraqlayapti.

Qizcha uxladimi deb

Mendan so‘roqlayapti.

Er uzra qo‘ndi oqshom,

Oy shu’lasi bir mayin.

Kel, oppog‘im, kel, erkam,

Men seni allayin.

2-guruh:

Buvilar duoga qo‘llarin ochib,

“Boshi toshdan bo‘lsin”, - der jigarlarin.

Buvalar elkaga ortib, opichib,

“Boshi toshdan bo‘lsin”, - der jigarlarin.

Aziz buvijonlar, aziz buvalar,

Yodingizda bo‘lsin yana bir tilak.

Boshi toshdan bo‘lsin jigaringizning,

Ammo tosh bo‘lmasin ko‘ksida yurak!

3-guruh:

Mening Vatanim

Yuz yil umr ko‘rsam,

yuz yil she’r yozsam,

Yuz yil ta’rifingni aytsam

muttasil.

Baribir, sevgili yor

suratini
 Chizmoqqa munosib rang topolmayin
 Chamanda tentirab
 yurgan rassomday
 Sening ta'rifingga
 so'z axtararman.
 So'zlar sarasidan shu
 bugungiday
 Yuz yilgi she'rimni
 Yig'salar ham-ki,
 Bo'lmaydi dildagi
 sevgimday asl,
 Ey, mening Vatanim,
 mening Vatanim!

She'rlar aytilgach, o'qituvchi she'r aytgan talabalarni rag'bat kartochkalari bilan taqdirlaydi va shoira haqidagi ma'lumotlarni yana o'zi kengaytiradi. Bunda quyidagicha jadvallarni videoprektor orqali namoyish etadi.

1-jadval:

| | | |
|-----------------------------|--|---|
| Shoira rasmi | Saida Zunnunova (1926-1977) | Shoiraning turmush o'rtog'i yozuvchi Said Ahmad bilan rasmi |
| 1926 yil 15 fevralda | Andijon shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan. | |
| Ilk she'ri | “Salom senga” | Andijon viloyatining “Paxta fronti” gazetasida bosilgan. |
| Ilk she'riy kitobi | “Qizingiz yozdi” (1945). | Bu nomni G'afur G'ulom qo'yib bergan. |
| To'plamlari | “Yangi she'rlar”, “Gullar vodiysi”, “Qizlarjon”, “Bir yil o'ylari”, “Nilufar”. | |
| Dostonlari | “Sodiq va Anor”, “Xayrixon”, “Surat bilan suhbat” (onasiga bag'ishlangan. Unda ona kechinmalarini ifodalagan), “Qo'shnilarim”. | |
| Hikoya va qissalari | “Gulbahor”, “Gulxan”, “Do'stlik”, “Qanot”, “Olov”, “Ko'chalar charog'on”, “Bo'yularingdan o'rgilay”. | |

| | |
|----------------------|--|
| Pesalari | “Ona”, “Ko‘zlar”. |
| She‘rlari | “Qizimga”, “Yer uzra qo‘ndi oqshom”, “Mening Vatanim”. |
| Shoira o‘giti | “Bosh toshdan bo‘lsa ham, yurak toshdan bo‘lmasin” |

Bu jadvaldan shoira hayoti va ijodiga oid fano tayyorlash uchun maket chizgisi sifatida foydalanish mumkin.

2- jadval:

| SAIDA ZUNNUNOVA HAQIDAGI FIKRLAR | |
|---|--|
| Adabiyotshunos To‘xtasin Jalilov | <i>Saida xalq ma‘naviy boyligi xazinasiga talaygina gavxarlar to‘kdi. Zakovatli xalqimiz bu san‘atkor ayolni xozir ardoqlaganidek kelajakda xam ehtirom bilan eslaydi, albatta!»</i> |
| Yozuvchi Said Ahmad | <p>«Saidaxon ellik bir yil umr ko‘rib,birovga bosh egmadi.Imonini mahkam ushladi. o‘ziga gard yuqtirmadi.Olamdan xalol,pokiza yashab o‘tdi. Laganbardorlik, birovga mutelik, xasadgo‘ylik unga begona edi.</p> <p style="text-align: center;"><i>Kurashsiz, mexnatsiz shodlik,</i></p> <p><i>kulgini</i></p> <p style="text-align: center;"><i>O‘g‘irlik mol deyman, qilaman</i></p> <p><i>hazar.</i></p> <p style="text-align: center;"><i>Qalbimning parchasi singmasa</i></p> <p><i>agar,</i></p> <p style="text-align: center;"><i>Rozimasman birov hadya etsa zar.</i></p> <p style="text-align: center;"><i>Bu satrlar Saidaxonning she‘rda chizilgan suratiga o‘xshaydi...”</i></p> |

Shundan keyin videoproektorda “Ruh bilan suhbat” dostoni yozuvi namoyish etiladi va o‘qituvchi doston haqidagi ma’lumotlarni bayon etadi:

Doston talabalar tomonidan ifodali o‘qiladi.

RUH BILAN SUHBAT **(Doston)**

Odamlar tarqagan allaqachonlar,
To‘yxonaga ham hukmin o‘tkazgandi tun.

O'choqda kul bosgan cho'g'lar miltillar,
Samovardan hamon o'rmalar tutun.
Mashshoqlar o'tirgan so'ri ham bo'm-bo'sh,
Tuproqda eng so'nggi raqqosa izi.
Birov karavotda uxlaydi pish-pish,
Birov muzdek suvga chayadi yuzin.
Faqat uyqu kelmas ona ko'ziga,
Shodligu xotira qalbini qamrab,
Behush ergashtirib uni izidan
O'tqizmay, yotqizmay yurardi sudrab.
Qarashmoqchi bo'lar goh singlisiga,
Goh turib qoladi xayolchan, sokin,
Gohi kelgan kabi hushi esiga,
Entikib, atrofqa qaraydi sekin.
Yig'ib olinmagan o'rtada stol,
Noz-ne'mat behisob: somsa, kabob, non.
Kelin-kuyov oldi urmaganday qo'l,
Qadahlar ham yarim turar yonma-yon,
- Hech narsa emabdi, och yotdimikan,
Uyalgan bechora, oh, bu kelinlik...
Ona yuragiga bordi-yu tikan,
Taniga bir narsa yugurdi iliq,
Shukur, o'zi tetik, yana pazanda
Suyganin og'ziga tutadi hali.
Kelin ham o'g'lidek unga arzanda,
Bir aziz mehmondek kutadi hali.
Qo'shaloq kaptardek ahil va inoq
Shu uyga fayz berib yashasalar, bas.
Shu orzu, ovunchda umri o'tdi toq,
Tayanch, dalda bo'ldi shu ezgu havas.
Nabiralar quritsa koshki tinkasin,
Quvnoq shovqinlari hovlini tutsa.
Bag'riga bosib, goh tutib elkasin,
Qolgan umri koshki shunaqa o'tsa.
Shirin xayollarga to'lgan ko'zlari
So'ligan gullarga tushdi-yu, tindi.
Olib kelishgandi bir to'da qizlar,
Guldonga suv quymay solibdi kimdir.

Avaylab, ohista suv purkadi ona,
Siladi tirilgan mayin yaprog'in.
Ranglar jilolanib, tovlanib yana
Nechun yangiladi onaning dog'in.
Guldasta qo'lida, ma'yus va sokin
Asta kirib keldi jim-jit uyiga.
To'rdagi suratning yoniga sekin-
Qo'ydi-yu, sho'ng'idi yana o'yiga.
–Sarupo kiymading qaynota bo'lib,
Hech yo'qsa gullardan bo'lgin bahramand,
Odam keldi bugun hovlingga to'lib,
Farzanding yoniga qo'shildi farzand...
Shodlik, o'kinchdanmi, ko'z yoshlar oqdi,
Ona qalbi so'zsiz chekardi fig'on.
Xira ko'zlar bilan yana suratga boqdi,
U hamon o'shanday, sukutda hamon.
–Suratda hamon o'sha-o'shasan,
Hamon ko'zlarida yoshlik, kulgi, nur,
Hali ham o'shanday chiroyli, yoshsan.
Hali ham o'shanday zabardast mag'rur.

Surat

Sen ham go'zal eding misoli Shirin,
Ko'nglimni yashnatgan bir chechak eding.

Ona

Na uyquga to'ygan va na kulguga,
Ko'rsa ko'z kuygundek kelinchak edim.
Birovning qayg'usi yig'latar edi,
Agar qo'shiq aytsa birga kuylardim.
Hayotga ba'zida o'lmaslik uchun
Kelganday bo'lardim, shunday o'ylardim.
Baxtimning poyoni, cheki yo'q edi.
Bu shaydo yuragim har narsadan lol.
Ishqingdan shunchalar ko'nglim to'q edi,
Undan ayrilishni qilmabman xayol...
Esimda, kuz edi, meva g'arq pishgan,
Bog'lar oltin libos kiygan ajib payt.
Lekin xalq boshiga musibat tushgan,
Men ham vokzaldan zil-zambil bo'lib,

Uyingga, onangning bag‘riga qaytdim.
Munchoq ko‘zlarini pildiratib sho‘x,
O‘g‘ling yotar edi belanchagida.
Eslasam yuragim eziladi, uh,
Hammasi ko‘zimda, ha, kechagidek.
Uylar huvilladi, ko‘nglimiz vayron,
Qaynana-kelin jim, sukutda qoldik.
To‘rt o‘g‘il o‘stirgan onang ham hayron,
Soatlab bechora o‘tirardi tek.
Akanq ketgan edi, ukang ham ketdi,
Behassa bukridek qoldi egilib.
Bu kunni ko‘rguncha ming rozi edim,
Kimdir badanimga tuz sepsa tilib.
Ma’yus ko‘zlariga har boqqanimda,
Qalbimni qiymalar edi hijroning.
Tug‘ib tug‘magandek firoqda, g‘amda
Olamdan ko‘z yumdi onajoning,
Sira chidolmadim bu ayriliqqa.
Dod dedim, zirqirab turardi uylar.
Qarg‘adim taqdirni yuzma-yuz, tikka,
Sho‘rlik qilsam derdi nabira to‘ylar,
Urf-odatni ham o‘sha kun buzdim,
Xotinlikni yig‘ib otdim bir yoqqa.
Tobutin bir boshin ko‘tardim o‘zim.
Odamla goh koyib, goh tutdi yoqa,
O‘g‘lim yo‘q deb yana o‘ksima, ona.
Seni ko‘tarmagan bu elkalarim
Bo‘lgani yaxshiroq pora-yu tilka.
O‘g‘lim yo‘q deb yana o‘ksima, ona,
Sen ham armon qilma bag‘rim, azizim,
So‘nggi yo‘lga uni kuzatmadim deb.
Tashlab ketgan eding menga o‘z izming,
Men ham bitta joning, bir parchang edim.
Tunlari koyidim taqdirni bedor,
Nechun bizda shuncha achchiq o‘chi bor!

Surat

Qismatda ne gunoh, o‘ylabsan xato,
Bu – ojiz va mute odamlar so‘zi.

Taqdirning o‘zi ham alamda, hatto,
Qora qilganlar bor taqdirning yuzin.

Ona

Ha, buni bilardim, qismatdan o‘zga
Kimni ham bo‘g‘ardim o‘sha damlarda.
Fashist olis edi qo‘lu ko‘zimdan,
G‘ajib tashlay desam bu alamlarga,
Tug‘ib, qotil boqqan onalarni goh,
Xayolan tik qo‘yib qilar edim sud.
Shunda onang tushib yodimga nogoh
Dunyoda o‘zimni sezardim mas’ud.
Uyga sig‘may qoldim, bir o‘q yasasam.
Bitta qo‘lqop tiksam, harna-ku dedim.
Hamma shunday derdiendi eslasam,
Men ham o‘shalarning bittasi edim.
Oh, bizning odamlar, dilcash odamlar,
Hech qachon tanholik sezdirmadilar,
Jigar bo‘lishdi-yu, eng og‘ir damlar,
Bag‘ridan bir nafas bezdirmadilar.
Kulgim, yig‘imni ham birga bo‘lishdi,
Ular ko‘magida joylandim ishga.
Ular ko‘magida aqlim to‘lishdi,
Olisdan o‘t ochdim yovga, urushga.
Ko‘pchilik ayollar edik zavodda,
Biram ayollarki, qoshlari qunduz,
Mehnatdan o‘zgani bilishmas, sodda.
Tunni tun deyishmas, kuzduzni kunduz.
Bittasi yig‘lasa, bari egar bosh,
Birining shodligi barchaga tatir,
Ishq to‘la qalblarda g‘azab va otash,
Bir jon qilib qo‘ygan ularni taqdir.
O‘g‘ling o‘sar edi “dada”, “dada”, deb
Talpinib qolganda suratingga goh,
Men esa o‘kinchdan ich-etimni eb,
Xo‘rsinib ko‘ksimga bosardim, evoh!
Entikib o‘pardim sochi, yuzidan.
Bag‘rin to‘latmoqni qilardim xayol.
Baribir qolardi go‘dak ko‘zida

Bir ko‘ngli yarimlik, bir mungli savol.
Yo‘q, sen bilmaysan, bu murg‘ak, ojiz-
Dilga javob izlab bo‘lmagansan lol.
Jigarim otashga tegardi jiz-jiz,
Sochlarim oqargan shunda ehtimol.

Surat

Bu ko‘zlar hasratin, oh mendan so‘ra,
Suyagimdan hamon chiqib ketar dud.
Jazavaga tushib ruhim yugurar
Qotgan tillarim ham qilolmas sukut.
Etimlik nima gap, shu murg‘ak jonlar-
Ko‘ksiga beayov otishgan-ku o‘q.
(Joningdan aylanay, oh, bolajonlar,
Unutib bo‘larmi u kunlarni? Yo‘q!)
O‘ziga niqtalgan to‘pponchani ham
O‘yinchoq deb bilgan mitti qo‘lchalar-
Shalpayib tushganda qandayin alam.
Ayt-chi, bu alamlarqanday o‘lchanar.
Murda ko‘kragini beparvo so‘rib,
Ingragan go‘dakni ko‘rganmisanmisan hech?!

Ona

Bas, bo‘ldi, rahm qil holimni ko‘rib,
Hatto tinglashga ham etmaydi kuchim.

Surat

O‘zing gap boshlading, endi quloq sol,
Hali tug‘ilmagan nabirang uchun
U kunni unutma, doim esga ol.
Qalbingda hamma vaqt saqlagin o‘chin
Haqqing yo‘q beparvo bo‘lishga bir dam.
Hech kimning haqqi yo‘q. Tingla, quloq ber,
Ovoz kelayaptimi olisdan, erdan?

Ona

Sezyapman, nahotki, tilga kirdi er?!

Surat

Bu bizmiz, azizim, qo‘l ushlab bot
Chirmashib yotibmiz ona tuproqqa.

Ona

Voy-bu, shuncha ko‘pmisiz nahot,

Shovqin eshityapman, yaqin-yiroqdan.

Surat

Tiriklardan ko‘ra balki ko‘proqmiz,
Tiriklardan ko‘ra ham inoqroqmiz.
Erining izidan quvg‘indi yurib –
Hormagan ajoyib ayollar shunda.
Partizan yashirgan onayu o‘g‘il
Hatto o‘zimizning mard Ostonaqul,
Fashistni titratgan Rahimovgacha,
To‘ychi Eryigitov, Hakimovgacha –
Hammamiz shu erda o‘q tomir bo‘lib
Erni elkamizda tutib yotibmiz.
To‘lg‘anib, g‘azabga, tashvishga to‘lib
Vietnam ustida bomba, o‘qlarning
Tezroq tinishini kutib yotibmiz.
Do‘stlar qabrimizga qo‘yayotganda,
Tinch yoting, deyishgan boshlarin egib.
Erda shuncha g‘avg‘o bo‘layotganda
Bajarmoq mumkinm, ular o‘gitin.
Juda ham notinchmiz, juda notinchmiz,
Qanday orom olay er ko‘rmasida,
Suv, osmon, avlodim tursa duchma-duch
Hayotu o‘limning qoq o‘rtasida.
O‘rmonni yoqmoq-chun kifoya gugurt,
Atomni ushlagan vahshiy qo‘llar bor.

Ona

Baribir bu qo‘llar juda-juda mo‘rt,
Uni jilovlashga qodir dillar bor.

Surat

Itni qopmaydi, deb bo‘lmas, azizim,
Tushlaringga kirib, sergak bo‘l, deyman.
Odamlar! Dog‘ surtmang aql yuziga,
Dunyoning umriga tirak bo‘linglar.
Qachon urush oti o‘chsa olamdan
Ona tuproq ichra uzatib oyoq.
Xotirjam bo‘larkan avlod, bolamdan,
Xayol-xotirangdan ketaman yiroq.

Ona

Hatto, it urishsa zirqirar qalbim,
Odam odam payin qirqmoq bo'lsa-chi?
So'zsiz qichqiraman: nega tug'ildim,
Quloqlarim batang bo'lib qolsachi!
O'rtada bo'lsin deb qadr ham izzat
Ayriliq va o'lim yaralganmi yo?
Shunda ham tantilik qilib tabiat
Buyuk bir aqlni bergan-ku, ammo,
Shu aql tantana qilar, azizim,
Tantana qiladi shavqat va vijdon.
Kuni kechagina Toshkentimizda
Tilu dil topishdi Hindu Pokiston.

Surat

Bizlarni ko'rsanglar, jon kirib ketdi.

Ona

Toshkentning musaffo, erkin havosi,
Yovuz niyatlarni chilparchin etdi.
Ikki xalq erishdi muddaosiga,
Aziz poytaxtinga tikildi ko'zlar.
Ko'plari xursandu, ko'pi alamda,
Dunyo efirida Toshkent so'zladi,
G'urur erkaladi dilu tanamni,
Tinch uxla, bo'lmagin sira bezovta,
Sizlar bosh qo'ygan bu ulug' tuproqni
Xo'rlasak va yoki bersak birovga
Bo'lganimiz yaxshi o'zimiz ham xok.
O'liklar quchoqlab yotsa-yu mahkam,
Nahotki, tiriklar turadi loqayd?
Unaqa tiriklik nimaga malham,
Unaqa tiriklik kimga kerak, ayt!
Onalar nomidan so'zlayapman men,
Ayol qudratiga kim keltirar shak.
Dunyoni so'ragan podshohlar ham
Birining go'dagi biriga oshiq.
Yigirmanchi asrning g'olib tug'ida
Qalbimiz qoni bor, buyukligi bor.
Oyni kaftga olgan fan yutug'ida

Biz silagan boshning tiniqligi bor,
Hayot yaratmoqqa yaralganmiz biz.
Yaratish toptashdan mushkul hamisha,
Shundan bilsa bo‘lur qudratimizni
Mas’ulmiz olamning hamma ishiga.
Farzand nafasidek shirin narsani
Yaralgandan beri bilmaydi odam.
Mana, dimog‘imda hamon nafasi,
Hatto kuyov bo‘lib qolsa ham bolam.

Surat

Qaynona bo‘ldim de?

Ona

Shundoq, dadasi.
Kelinimni ko‘rsang qilgunday ko‘z-ko‘z.

Surat

Sochlari uzunmi? Qanaqa esi?

Ona

Hammasi joyida, kamsuxan, kamsu‘z.

Surat

O‘g‘lim-chi? Qadringga etadi u?

Ona

Albatta. Bo‘y-basti qo‘yganday o‘zing.

Surat

Qara, tong otyapti, bermadim uyqu,
Charchading chamamda, qizargan ko‘zing.

Ona

Sira unday dema, tirik bo‘lsang ham,
Baribir bu kecha uxlolmas edik.


Surat

Yorug‘ tushib qoldi, hovliga qara,
Hali ham kech emas, mizg‘ib ol jindek.
Musicha ku-kulab, bulbul sayraydi,
Oynadan nur tushdi ona yuziga.
Nurga o‘ralganday yashnab, yarqirab,
Kelini jilmayib turar ko‘zida.
Oyi, deb ilk marta chaqirar uni,
Choyga taklif qilar e‘zozlab balki,
Lekin ona qalbin, shu bedor tunni,

Shu kungi suhbatni u bilarmikan?..

Dostonda ilgari surilgan g‘oyalar tahlil qilinadi va ularning quyidagi chizmasi beriladi:

“Ruh bilan suhbat” dostonida ilgari surilgan g‘oyalar



Mashq’ulotni mustahkamlash uchun turli o‘yinlardan, masalan, **krossvord**dan foydalanish mumkin. Har uchala guruhga shoiraning she’riy to‘plamlari, dostonlari va ularda ilgari surilgan g‘oyalarni krossvordning bo‘sh kataklariga joylashtirib chiqish vazifasi topshiriladi. Bunda taxminan quyidagicha krossvordlardan foydalanish mumkin:

Krossvord

1. Onalarga bag‘ishlangan doston. 2.Suvda o‘sadigan gul nomi bilan atalgan she‘riy to‘plam. 3. Oddiy she‘riy to‘plam nomi. 4.Yaqqinlari haqidagi doston. 5.Birodarlik nomi bilan atalgan kitob. 6.Dugonalar uchun atalgan kitob. 7. Yana bir she‘riy to‘plam.

| | | | | | | | | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|--|--|-----------------|--|--|--|--|
| | | | | | | | | <i>C</i> | | | | |
|--|--|--|--|--|--|--|--|-----------------|--|--|--|--|

| | | | | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|--|-----------------|--|
| | | | | | | | <i>A</i> | |
|--|--|--|--|--|--|--|-----------------|--|

| | | | | | | |
|--|--|--|--|-----------------|--|--|
| | | | | <i>Л</i> | | |
|--|--|--|--|-----------------|--|--|

| | | | | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|--|--|-----------------|
| | | | | | | | | <i>O</i> |
|--|--|--|--|--|--|--|--|-----------------|

| | | | | | | |
|--|--|-----------------|--|--|--|--|
| | | <i>M</i> | | | | |
|--|--|-----------------|--|--|--|--|

| | |
|--|-----------------|
| | <i>S</i> |
|--|-----------------|

| | | | | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|--|--|-----------------|
| | | | | | | | | <i>E</i> |
|--|--|--|--|--|--|--|--|-----------------|

| |
|-----------------|
| <i>H</i> |
|-----------------|

| | | | | | | | | | | | |
|--|--|-----------------|--|--|--|--|--|--|--|--|--|
| | | <i>Г</i> | | | | | | | | | |
|--|--|-----------------|--|--|--|--|--|--|--|--|--|

| |
|-----------------|
| <i>A</i> |
|-----------------|

Dostonni o‘rganishda savol va topshiriqlardan foydalanish

Mashq‘ulot yakunida “Olg‘a” o‘yinidan foydalanib mashq‘ulotni yakunlash maqsadga muvofiqdir. Bu usulga ko‘ra doskaga 3 etapga xos savollar ilib qo‘yiladi. Bunda 1-etap “3” baho, 2-etap “4” baho, 3-etap “5” baho bilan baholanadi.

Talaba birinchi etap savollarini ishlab bo‘lgach, 2-, 3-etapga o‘tib boradi. Ushbu o‘yinda “oddiydan murakkabga” qoidasiga rioya qilinadi va talabalar o‘ziga o‘zi baho berish imkoniyatiga ham ega bo‘lishadi.

Savollar taxminan quyidagicha tuziladi.

Savol va topshiriqlar

1. Urush davri hayoti tasvirlangan qanday asarlarni o‘qigansiz?
2. Onaning ko‘ngli nimadan bezovta bo‘ldi?
3. Onaning suratga murojaatidan nimani angladingiz?

4. Doston qahramoni – onaning fazilatlarini izohlang, matndan misol keltiring.

5. Dostondan onaning qaynonasi vafoti bilan bog‘liq xotirasini qayta o‘qing. O‘z so‘zingiz bilan aytib bering.

Yoki savollarni quyidagi tartibda etaplashtirish mumkin:

1-etap: 1. Saida Zunnunova qachon, qayerda, qanday oilada tug‘ildi? 2. Shoira qaysi o‘quv yurtlarida tahsil oldi? 3. Shoiraning ilk she‘ri qanday nomlanadi?

2-etap: 1. Saida Zunnunova qanday she‘riy to‘plamlar yaratgan? 2. Shoiraning birinchi she‘riy to‘plami qanday nomlanadi? Uni kim nomlagan? 3. Shoira she‘rlarida qanday g‘oyalar ilgari suriladi?

3-etap: 1. Saida Zunnunovaning qanday dostonlari mavjud? 2. “Ruh bilan suhbat” dostonining bosh g‘oyasi nima? 3. Ona obraziga ta‘rif berish mumkin? 4. Dostonning xotirangizga qolgan o‘yinlaridan parcha aytib bera olasizmi?

2. Test topshiriqlarini berib talabalarning ushbu mashq‘ulot jarayonida egallagan bilimlari sinovdan o‘tkaziladi.

TEST SAVOLLARI

1. Saida Zunnunova qachon, qanday oilada dunyoga keldi?

- A. 1916-yil ziyoli oilasida
- V. 1926-yil ziyoli oilasida
- S. 1926-yil xizmatchi oilasida
- D. 1901-yil o‘rtahol oilasida

2. Shoiraning birinchi she‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.

- A. “Qizingiz yozdi”
- V. “Salom senga”
- S. “Salom she‘rim”
- D. “Nilufar”

3. Shoiraning she‘riy to‘plamlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.

- A. “Yangi she‘rlar”, “Nilufar”, “Qizlarjon”, “Gullar vodiysi”, “Qizingiz yozdi”
- V. “Qo‘shnilarim”, “Yangi she‘rlar”
- S. “Nilufar”, “Qizingiz yozdi”
- D. “Anor”, “She‘rlar”, “Bir yil o‘ylari”, “Ona”, “Ko‘zlar”

4. Saida Zunnunovaning dostonlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.

- A. “Ona”, “Ko‘zlar”, “Ruh bilan suhbat”
- V. “Sodiq va Anor”, “Xayrixon”, “Nilufar”
- S. “Qizlarjon”, “Bir yil o‘ylari”, “Qo‘shnilarim”

D.”Sodiq va Anor”, “Xayrixon”, “Qo‘shnilarim”

5. Saida Zunnunova ijodi, hayotining bosh g‘oyalari ko‘rsatilgan qatorni toping.

A.Kurashuvchanlik, e’tiqodlilik

V.Kamtarlik, mehnatsevarlik,

S.Halollik, to‘g‘riso‘zlik

D.Andishalilik, oqibatlilik

S.Zunnunovaning “Ruh bilan suhbat” dostoni haqida talabalarga bilim berishda kompyuter texnologiyasidan foydalanish katta samara beradi. Ya’ni bunda dostonga oid ma’lumotlar faktik asosda havola qilinishi ta’minlanadi. Buni “Ruh bilan suhbat” dostoni misolida kompyuterda quyidagi mashq va topshiriqlarning bajarilishi asosida ko‘rib chiqish mumkin.

“*Ruh bilan suhbat*” dostonini o‘qib chiqing va mazmunini so‘zlab bering” topshirig‘i berilgach, keyin kompyuter xotirasiga dostonning hajmi, nashri va asar qahramonlari haqida ma’lumot kiritib berish tavsiya etiladi. Har bir talaba kompyuterga o‘zining kodi va shifri bilan birga javoblarini ham yozib kiritadi. Agar talaba oldindan yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lsa, javob matnini tezgina tayyorlaydi. Talabalarga faqat topshiriq emas, ma’lumotnoma materiallaridan (kompyuterga doston haqida ma’lumot ham kiritilgan bo‘ladi) foydalanish imkoni ham beriladi.



Tahliliy nazorat o‘tkazilganda mazkur topshiriq bo‘yicha talabalarning qoniqarli javob qaytarganligi aniqlandi. “Nega “Ruh bilan suhbat” dostoni yozildi?” “Dostonning qanaqa tarbiyaviy ahamiyati bor?” topshirig‘i shu haqdagi parchani kompyuter xotirasida saqlangan matndan toping” tarzida almashtiriladi.

Kompyuter bazasidagi mavjud ma’lumotlardan izchil foydalanish talabalar ijodiy tafakkurining shakllanishi va dunyoqarashining kengayishiga yaqindan yordam beradi. Kompyuter xotirasiga rivojlantiruvchi, mustaqil bilim olishga qaratilgan savol-topshiriqlar hamda ularga javob tariqasida ilmiy-didaktik manbalarning qo‘shimcha material sifatida kiritilishi talabalar oldida katta imkoniyatlar yaratadi.

“Ruh bilan suhbat” dostonini o‘rganishda kompyuterda tayyorlangan rangli slaydlardan ham foydalanish mumkin. Slaydda dostonning asosiy syujet motivlarini, badiiy tasvir vositalarini ketma-ketlikda yozib ko‘rsatish mumkin. Yoki mashq‘ulotni

mustahkamlovchi savollarni hamdatest topshiriqlarini slayd orqali talabalar e'tiboriga havola qilish mumkin. Ular talabalarga o'quv materialini puxta eslab qolishga katta yordam bera oladi.

3. Dostonni "Klaster" o'yini asosida ham o'rganish qulay. Jumladan, "Ruh bilan suhbat" dostonida ilgari surilgan g'oyalar, unda ishtirok etuvchi obrazlar va ularning xarakter xususiyatlari asosida talabalar tomonidan tayyorlanadi



Xulosa

Saida Zunnunova – o‘zbek ayollarining ovozi bilan kuylagan mahoratli shoiralardan biri. Uning she‘riyatida ayol erki, ayol qalbi, iztirobga limmo-lim ona timsoli, ona armonlari, ona baxti, ona dili haqida yonib kuylangan. Shoira o‘z she‘rlari va dostonlarida, asosan, mehnatkash, oddiy o‘zbek onasining portretini chizadi. U ona siymosida chinakam insoniylikni, bag‘ri kenglikni, mehri daryolikni tasvirlaydi.

S.Zunnunovaning “Ruh bilan suhbat” dostonini bemaolol ona haqidagi qo‘shiq deyish mumkin. Chunki bu dostonida ona ruhiyati manzaralari yorqin chizib berilgan va onalar qalbida kechadigan o‘y-kechinmalar betakror hassoslik bilan ifoda etilgan. Shuning uchun bu doston chuqur lirizm bilan sug‘orilgan. Unda ayol timsoli davr bilan hamohang holda bir necha qiyofada namoyon bo‘ladi.

“Ruh bilan suhbat”da urush fojialaridan qalbi zada bo‘lgan ayolning iztiroblari, quvonchu dardlari kuylangan. Unda onaning betakror timsoli chizilib, ulug‘ zot haqidagi falsafiy fikrlar ilgari surilgan. Umuman, shoira ushbu dostoni bag‘rida ayol va onaning munis, mehrga to‘la chehrasi balqib turadi. Eng muhimi, S.Zunnunova bu dostoni o‘tgan asrning 70-yillari o‘zbek lirik dostonchiligini yangi sahifalar bilan boyitdi.

“Ruh bilan suhbat”da faqat urush fojialari mavzusi emas, balki “mohiyatan mushtarak bo‘lgan o‘nlab taassurotlar va tuyg‘ular silsilasi aks etadi”. Ular ichidan eng muhimlariga shoir yoki lirik qahramon munosabati bildiriladi.

Dostonida lirik qahramon kechinmalari urush yillari ayollarining qalb nidosi bo‘lib yangraydi. Shu asosda surat tilga kiradi va doston voqealari *dialog* vositasida inkishof etadi. Surat va onaning xayoliy suhbatlari asosida kitobxon ko‘z o‘ngida urush fojialari, etim qolgan go‘daklar, beva ayollar qismati, shaxs va insoniyat taqdiri tarzida badiiy tadqiq etiladi. Ona front orqasida turib kechani kecha, kunduzni kunduz demay ishlagani, shodligu qayg‘usi bir bo‘lgan ayollar haqida so‘zlasa, surat esa etimlik qismati, urush maydonlaridagi qahramonliklardan so‘ylaydi. Lirik qahramon va surat orasidagi suhbatlar urush yillari voqeligining dahshatli manzaralarini tasavvur etishga yordam beradi.

“Ruh bilan suhbat” asari 60-yillar monolog tipidagi lirik dostonchilik

taraqqiyotiga munosib ulush bo‘lib qo‘shildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – T.: O'zbekiston, 2009.
3. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент : Ўзбекистон, 2017.
4. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 2-jild. – T.: Fan, 1992.
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent: O'zbekiston, 2002.
6. Bekova N. Interfaol usullar – mashq'ulot samaradorligining asosiy omili. – T.: Muharrir, 2010.
7. Zununova S. Ruh bilan suhbat // Nilufar. She'riy to'plam. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.
8. Zunnunova S. Tanlangan asarlar. –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.
9. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. –Toshkent: O'zbekiston, 2008.
10. Mirzayeva S. O'zbek realistik adabiyotida folklor an'analari. Folklorshunoslikdan o'quv-uslubiy qo'llanma. –T.: Istiqlol, 2005.
11. Normatov U. Doston va zamon // Sharq yulduzi, 1987, №10.
12. Rahimjonov N. O'zbek adabiyotida poema. –Toshkent: Fan, 1986.
13. Rahimjonov N. Shoir va davr. –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
14. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. – Toshkent: Fan, 2007.
15. Umurov H. Adabiyot qoidalari. – T.: O'qituvchi, 2002.
16. Sharafuddinov O. Zamon. Qalb. Poeziya. –Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1962.
17. Hasanov Sh. Zamonaviy doston poetikasi. Samarqand, 2001.
18. Қувватова Д. XX аср иккинчи ярми ўзбек дostonчилигининг тараққиёт хусусиятлари. ДД. –Тошкент, 2016. – 267 б.

MAVZU: ERKIN VOHIDOV IJODI. “RUHLAR ISYONI” DOSTONI



Reja:

1. Erkin Vohidov hayoti va ijodiga chizgilar.
2. Erkin Vohidov dostonlari.
3. “Ruhlar isyoni” dostonining g‘oyaviy yo‘nalishi va o‘ziga xos badiiyati.
4. Dostonni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘tishni tashkil qilish yo‘llari.
5. Dostonni o‘rganishda savol va topshiriqlardan foydalanish.
6. Xulosa.

Erkin Vohidov hayoti va ijodiga chizgilar (1936 yilda tug‘ilgan)

Erkin Vohidov yangi o‘zbek she‘riyatining XX asrning 60-70-yillarida yetishgan yorqin va betakror namoyandasidir. Shoirning o‘zbek mumtoz she‘riyati an‘analari izidan borib, zamondoshlari ma‘naviyati va kayfiyatini ifoda etgan «Yoshlik devoni», yuksak zamonaviylik, fuqarolik ruhi bilan yo‘g‘rilgan «Tirik sayyoralar», «Sharqiy qirg‘oq», «Yaxshidir achchiq haqiqat» to‘plamlari, urush fojialaridan so‘zlovchi «Nido», shafqatsiz realistik «Ruhlar isyoni» falsafiy dostoni, «Istambul fojiasi» she‘riy dramasi, hajviy-yumoristik «Donishqishloq latifalari» turkumi, «Oltin devor» komediyasi, I.Gyote, S.Yesenin, A.Blok, M.Svetlov, A.Tvardovskiy, R.Hamzatovdan qilgan tarjimalari, xususan, «Eron taronalari» bilan «Faust» tarjimasini adabiyotimizda, madaniy hayotimizda ulkan voqea bo‘ldi. Shoirning publistik adabiy-tanqidiy maqolalari, suhbatlari va ulardan tashkil topgan «Iztirob» (1992) kitobi muallif

dunyoqarashining shakllanish yo'llarini aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgu sifatida qimmatlidir.

Erkin Vohidov Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida **1936-yilning 28- dekabrda** qishloq o'qituvchilari oilasida dunyoga keldi. Otasi Cho'yanboy Vohidov, onasi Roziyaxon davrning obro'-e'tiborli, ma'rifatli, faol kishilari edilar. Afsus, ular uzoq yashamadilar. Vatan urushida qatnashib, og'ir yarador bo'lib qaytgan ota, so'ng ona dunyodan o'tdi; bo'lg'usi shoirning opasi va ukasi ham go'dakligida vafot etgan edi. Ikki qisqa umrning yolg'iz yodgori bo'lib Erkin toshkentlik tog'alari qo'lida qoldi. Tog'alari – **Karimboy Sahiboyev** adliya xodimi, respublika Oliy sudi hay'ati a'zosi, **Rixsi Sahiboyev** esa bir necha yillar O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumining sekretari bo'lgan.

Sahiboyevlar xonadoni adabiyotga, san'atga, umuman, ma'rifatga tashna edi, xonadonda tez-tez shoir va xonandalarning maroqli davralari bo'lib turardi. Sahiboyevlar xonadonidagi davra qatnashchilari ayni paytda islom ma'rifatining darg'alaridan edilar. Erkin Vohidovdagi nafosatga, she'riyatga mehr va mayl shu xonadonda, ana shu davralarda shakllandi. U juda erta qo'liga qalam oladi.

7-sinfda o'qib yurganida «Mushtum» jurnalida birinchi she'ri bosiladi. O'quvchilik yillari Ostrovskiy nomidagi pionerlar saroyida shoir G'ayratiy bosh bo'lgan to'garak mashg'ulotlariga qatnashib turadi. Bu to'garak bo'lg'usi shoir uchun badiiy ijod bobida ilk saboq dargohi xizmatini o'tadi. So'ngra Erkin Vohidov Toshkent davlat universiteti filologiya fakultetida ta'lim oldi. U o'qigan kezlari (1955-1960) universitetning filologiya fakul'teti respublikadagi ilmiy-adabiy markazlaridan biriga aylangandi. Ayni o'sha yillari respublika Yozuvchilar uyushmasida ham ijodiy muhit jo'sh urgan, yosh iste'dodlar tarbiyasiga e'tibor kuchaygan, shoir Mirtemir bosh bo'lgan ijodiy seminar dovrug' qozongan bir davr edi. Ko'p ijodkorlar qatori E. Vohidov ham mana shu ijodiy iqlim havosidan bahramand bo'ldi. «Yozuvchilar uyushmasining yosh ijodkorlar seminarlaridagi qizg'in bahslar, ulug' ustozlar **Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzodalar** bilan ilk muloqotlar va uchrashuvlar universitet dargohidagi adabiy muhit hayotimda o'chmas iz qoldirdi, – deydi shoir. – Men ijodiy mehnatni faol jamoat ishlari bilan qo'shib olib borishdek sharafli vazifa yukini doimo yelkamda his qilaman.

Odamlarga faqat she'ring emas, o'zing kerakligingni sezish – bu katta baxt. Shuning uchun ham jamoat mehnatidan hech qachon o'zimni olib qochgan emasman. Qaynoq hayot ichida yashab, ishlab o'rganganman».

Darhaqiqat, u badiiy ijodni faol jamoatchilik ishlari bilan qo'shib olib bordi. «Yosh gvardiya» nashriyotida bosh muharrir o'rinbosari, «Yoshlik» jurnalida bosh muharrir, G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyotida direktor bo'lib ishladi. Bolalar jamg'armasi O'zbekiston bo'limiga raislik qildi. Yozuvchilar uyushmasida xilmaxil vazifa, topshiriqlarni ado etib keldi; respublika xalq noibi, Oliy Kengash oshkoralik qo'mitasining raisi sifatida haqiqat va adolat uchun kurash olib bordi. Uning ko'p vaqti xalq ichida, yurtimiz va mamlakatlar bo'ylab safarlarda o'tmoqda. Qisqasi, uning ijodi mana shu qaynoq hayot ichida, jo'shqin ijtimoiy faoliyat jo'rligida shakllangan.

Erkin Vohidov shoir sifatida shakllangan 50-yillar o'rtalari 60-yillar boshlari jamiyatda yangi ruh, yangicha qarashlar qaror topayotgan davr edi. Biroq bu jarayon osonlikcha kechgani yo'q. Shoir 90-yillar boshida turib bosib o'tgan yo'liga nazar tashlar ekan, unda ko'p o'nqir-cho'nqirlar, izlanishlar borligini ko'radi: «Negaki, – deb yozadi u, – boshimizdan kechirgan kunlarimizning o'zi notekis, murakkab, xatolarga to'la bo'lgan. Biz haq so'zni aytish qiyin bo'lgan zamonda yashadik. Bu ish hozir ham, demokratiya va oshkoralik hukmron bo'layotgan davrda ham unchalik oson emas».

Ma'lumki, ijodning, ijodkorning shakllanishida ijtimoiy-siyosiy vaziyat, adabiy muhit, tarbiyaning ahamiyati qanchalar katta bo'lmasin, baribir iste'dod darajasi, fuqarolik vijdoni, iymon-e'tiqodi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Yana shunisi borki, hatto qulay sharoitda ham ijod g'oyat o'ziga xos iztirob va iynoqlarga to'la betinim izlanishlar, ziddiyatlar ichida kechadi. Erkin Vohidovning ijodiy yo'lini kuzatganda, shoirning 15 yoshda yozgan oromgoh tongi haqidagi

bolalarcha sodda, mas'um satrlaridan tortib, 2001-yilda chop etilgan mardona, shafqatsiz haqiqat yog'dulari bilan yo'g'rilgan to'rt jildlik asarlariga qadar bosib o'tgan ijodiy yo'liga nazar tashlaganda, bunga iqrar bo'lish mumkin.

E.Vohidov adabiyotga 30-40 yillar she'riyati ta'sirida hayot, yoshlik, sevgi kuychisi sifatida kirib keldi. Uning ilk mashqlarida

tanqidchi Ozod Sharafiddinov aytganidek, ko‘proq dunyoni endi kashf qilayotgan, o‘zining kashfiyotidan o‘zi zavqlanib, xursandchiligidan boshqalarni xabardor etishga oshiqayotgan, yashashning benihoya go‘zal ekani, hayotning noyob ne‘mat ekanini tushunib kelayotgan murg‘ak qalbning quvonchlari bor... Keyinroq shoir aql va his bahsiga kirishib, hissiyotni ustun qo‘ygan paytlari ham bo‘ldi, ayni vaqtda aql-mushohada ustunlik qilib aqlli gap aytish uchungina ham she‘rlar yozdi. Madhiya, faxriya, qasidachilik kayfiyatlariga berilgan onlar ham bo‘ldi, romantik xayollar og‘ushida ishqiy g‘azallar bitdi, ko‘ngil zavqini, sevgini, baxt nashidasini, turmushdan shukronalik, rozilik kabilarni to‘lib-toshib kuyladi. Shu asarlar qatorida sodda-samimiy, bolalarcha sho‘x, beg‘ubor, hazil-mutoyiba bilan yo‘g‘rilgan she‘rlar ham yozdi; ayni paytda ko‘ngil armonlarini, xalqimizning og‘ir va shonli kechmishi, tariximizning qora va nurli sahifalarini ham she‘rlarga soldi; lekin, baribir, hayot madhi, sevgi sururi, faxr-iftixor tuyg‘usi ijodida yetakchilik qildi. Har qanday she‘rdan to‘ppa-to‘g‘ri zamonaviy, ijtimoiy-siyosiy ma‘no qidirishga odatlanganlar nazarida sof ishqiy kechinmalarni kuylash, ifodalash ham, ko‘hna she‘riy shakl aruzga murojaat qilish ham g‘ayritabiiy, zamondan uzoqlashish bo‘lib tuyular edi. E.Vohidov «Yoshlik devoni»ning «Debocha»sida shunday qarashlar bilan oshkora bahsga kirishadi:

Istadim sayr aylamoqni
Men g‘azal bo‘stonida
Kulmangiz, ne bor senga deb
Mir Alisher yonida
She‘riyat dunyosi keng,
Gulzori ko‘p, bo‘stoni ko‘p
Har ko‘ngil arzini aytur
Neki bor imkonida.

Shu tariqa, shoir inson qonidagi azaliy, tabiiy bebaho tuyg‘u – sevgi bilan barobar necha asrlar sevgi kuyini kuylagan qadimiy g‘azalni birdek himoya qiladi, she‘rda g‘azal shunchaki shakl ma‘nosida emas, muhabbat, boqiy insoniy tuyg‘ular ramzi tarzida ham qo‘llangan. O‘sha kezlarda aruzni, g‘azalni amalda qat‘iy turib himoya etib chiqish chindan ham jasorat edi. Shoir Abdulla Oripov yozganidek, mumtoz g‘azaliyotimizning oltin eshiklari abadiy bekitiladi deya karomat qilishayotganda yosh avlod orasidan birinchilardan bo‘lib Erkin Vohidov aruzning tabarruk ostonasida

posbon yanglig‘ paydo bo‘ldi.

«Yoshlik devoni»dagi lirik qahramon ko‘p hollarda mumtoz she‘riyatimizdagi ishq yo‘liga jonini tikkan, yor ko‘ngli, vasli ko‘yida har qanday jabru sitamlarga tayyor fidoiy oshiq.

Barcha shodlik senga bo‘lsin,
Bor sitam, zorlik menga
Barcha dildorlik senga-yu,
Barcha xushtorlik menga...
Bu jahonning rohatin ol,
Bor azobin menga ber
Senga bo‘lsin barcha orom,
Barcha bedorlik menga.

Tazod san‘ati bilan ziynatlangan ushbu misralarda oshiqona fidoiylik mujassam. Oshiq yigitning dilrozlari, ma‘shuqaninig ta‘rif-tavsifi har qancha mubolag‘ador, romantik jilolar yo‘g‘rilgan bo‘lmasin, har ikkisi ham zamin va zamon farzandi, ular «o‘z zamonin zayli»ga itoat etadigan bizga zamondosh odamlar.

Erkin Vohidov g‘azallari, muayyan kam-ko‘stlariga qaramay, shoirning o‘z aruzi, o‘z g‘azal shakliga aylangani uchun ham she‘riyatimiz rivojida hodisa bo‘ldi.

Gul bo‘lib, gul-gul yonib
Gulshan aro Gulchehralar.
Gul uzib o‘ynar, qo‘shib
Gulga bino Gulchehralar.
Qay birisi qay biriga
Oshiq ekan, bilmadim
Gulmi yo Gulchehralarga,
Gulga yo Gulchehralar.

Bunaqa o‘ynoqi ohang, lutf, nafosat faqat E. Vohidov aruzigagina xos. Yana bir ajib hol: g‘azalning shu ikki bandi 28 so‘zdan tashkil topgan bo‘lsa, shulardan 12 tasi «gul» yoki «gul» o‘zagidan yasalgan so‘zlardir. Bu esa she‘riyatimizda mavjud go‘zal ishtiyoq san‘atini vujudga keltirgan. She‘rda so‘z takrori xayolingizga ham kelmaydi, «gul» so‘zi har gal yangi ma‘no, yangi chiroy, yangi ohang kasb etadi.

Yillar o‘tgani sari shoirning fikrlar ufqi kengayib, his-tuyg‘ular tobora serjilo bo‘lib bordi. Shunga qaramay, shoirda qandaydir ijodidan qoniqmaslik, o‘zini yangilashga moyillik kayfiyati tug‘ildi.

Bu bir dard, armon bo‘lib vujudini g‘alayonga sola boshladi. E.Vohidov she‘riyatidagi burilish inson, uning hayoti mohiyatini murakkabligi bilan poetik idrok etishdan boshlangan. «Inson» qasidasi inson madhi, insonni ulug‘lovchi satrlar bilan boshlanadi:

Sobitu sayyorada inson o‘zing, inson o‘zing,

Mulki olam ichra bir hoqon o‘zing, sulton o‘zing.

Shoir shu inson qudrati, xususan, uning hozirgi fan-texnika inqilobi sharoitidagi imkoniyatlari xususida so‘z ochib, koinot sahrosida karvonu sarbon, keng jahon uning kaftida, shams-quyosh dil taftida ekanini aytadi. Inson izmidagi bu yorug‘ dunyo nadur, degan savol qo‘yadi-da, keskin va shafqatsiz ravishda «Koshonadur, vayronadur», - deya javob qiladi.

«**Inson**» qasidasidan go‘yo E.Vohidov ijodida inson to‘g‘risidagi she‘riy bahslar turkumi boshlandi. «Tirik sayyoralar», «Temirtan daholar», «Viruslar», «Arslon o‘ynatuvchi» kabi she‘rlar shu turkumni tashkil etadi. “Inson, bu – sir, jumboq. Bu jumboqni yechish kerak», – degan edi F.Dostoyevskiy. Adabiyotning, binobarin, she‘riyatning bosh vazifasi shu jumboqqa javob qidirishdan iborat. E.Vohidovni esa hammadan burun insonning ma‘naviyati, e‘tiqodi masalasi qiziqtiradi. Inson ezgu ishlari, yuksak e‘tiqodi bilangina inson. Iymon, vijdon, e‘tiqod – insonni ichdan yoritib, taftish qilib turuvchi, to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi sehrli «ilohiy» kuch. Shu muqaddas tuyg‘udan mahrum shaxs esa qabih, ayanchli va qo‘rqinchli; bunday kimsa qalbida nur, his, ko‘zida ma‘no yo‘q, bersang, bu dunyoni yutmoqqa ham qodir, zar qasdida, dunyo qasdida, shaxsiy manfaat yo‘lida jamiki tubanliklar sari borishga tayyor. Shoirning qat‘iy xulosasi shunday: Imon deng, vijdon deng, mayli otini, – Lekin odamzotning «xudo»si bo‘lsin.

E.Vohidovning 70-80 yillar ijodi she‘riyatimizning realistik imkoniyatlarini kengaytirishi jihatidan ham ibratlidir. Xususan, «Arslon o‘ynatuvchi» she‘ri bugungi she‘riyatimizning realistik imkoniyatlarini kengaytirishi nuqtai nazaridan ham ajoyib ehson. Xorijiy safar taassurotlari asosida yaratilgan bu she‘r qaramlikka, mutelikka qarshi o‘tkir aybnoma; faqat shugina emas, unda qaramlik dunyosining shafqatsizligi – tirikchilik, hayot tashvishlari tirik mavjudotni, odam bolasini ne ko‘ylarga solishi butun dahshati bilan ko‘rsatiladi, qaramlarni bir-biriga bog‘lab qo‘ygan ko‘zga ko‘rinmas kishanlar ildizi ochib tashlanadi.

Shoirning bu davr ijodida kulgi-yumor ham o‘zgacha ko‘rinish kasb eta boshladi. Chunonchi «Donishqishloq latifalari»ni o‘qib, hamma kuladi. «Vaholanki, men ularni alam bilan yozganman, – deydi shoir. – Aql-idrok zid, teskari ishlarimiz el boshiga kulfat va uqubatlar keltirayotgani sir emas-ku»

80-yillar oxiri, 90-yillar boshlarida ma’naviyatimizdagi o‘zgarish, yangilanishlar E.Vohidov she’riyatida, xususan, «Yaxshidir achchiq haqiqat» to‘plamida o‘z aks-sadosini topdi. Bu davr she’riyati rivojidadagi eng xarakterli jarayon – unda to‘la ma’noda ruhiy erkinlikning namoyon bo‘la boshlaganidir.

Bu nihoyatda muhim xususiyat, busiz chinakam badiiy kashfiyotlarning paydo bo‘lishi mushkul; notavonlik deysizmi, ijodiy originallik deysizmi, uslubning o‘ziga xosligi, shakliy topilmalar deysizmi – barchasining ibtidosi shu ruhiy erkinlikdan boshlanadi. Yetmish yil davomida she’riyatimiz, ijodkorlarimiz hukmron mafkura, siyosat tazyiqida bo‘lib keldi. Bu tazyiqdan chetda turishga, mustabid tuzum adabiy aqidalari qobig‘ini yorib chiqishga dadil urinishlar ham bo‘ldi. Biroq, jasur, haqgo‘y shoirlar har qancha urinmasinlar, baribir, ularning qonida qandaydir Cho‘lpon aytgan sustkashlik davom etdi, tutqunlik, zug‘um qandaydir ko‘rinishda o‘z asoratini qoldirdi. Faqat 80-yillar oxirlariga kelib, shoirlarimizda ruhiy erkinlik to‘la namoyon bo‘la boshladi. E.Vohidovning shu davr mahsuli bo‘lgan «Vatan umidi» she’rida shunday satrlar bor:

Agarchi ismim Erkin,
Erki yo‘q, bandi kishan bo‘ldim.
Ko‘zim bog‘liq, dilim bog‘liq,
Tilim yo‘q, besuxan bo‘ldim...

Ko‘ngilda Olloh, Iymon, e’tiqod, muqaddas ilohiy haqiqat yo‘q bo‘lgandan keyin o‘zlikni taftish qilish, tavba-tazarru uchun o‘rin ham, hojat ham qolmaydi. Xayriyatki, kechikib bo‘lsa-da, adabiyot, she’riyat, shoirlarimiz shu azaliy muqaddas an‘analarga qayta boshladilar. Shu yangi harakatning boshida turganlardan biri E.Vohidovdir.

Kechir, yanglishmagan kim bor,
Mening ham ko‘p gunohim bor.
Odamzod asli nokomil,
Kechir, yo rab, kechir yo rab!

Navoiy munojotlariga hamohang bunday satrlarni yetmish yil

davomida birorta ham «taniqli o‘zbek shoiri» aytmagan edi.

E. Vohidovning jo‘shqin faoliyati hukumatimiz tomonidan yuqori baholangan. Unga buyuk xizmatlari uchun «O‘zbekiston xalq shoiri» unvoni berilgan, «Hurmat belgisi» ordeni bilan mukofotlangan. 1983 yil «Sharqiy qirg‘oq» to‘plami uchun Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti bilan taqdirlangan. Istiqlol yillarida “O‘zbekiston Qahramoni” yuksak unvoniga sazovor bo‘ldi.

Erkin Vohidov dostonlari

E.Vohidov o‘nga yaqin doston yozdi. Ularning mavzu-mundariyasi, saviya-darajasi turlicha. Shakliy-uslubiy tomondan ham ular xilma-xil. «Toshkent sadosi» bilan «Quyosh maskani» qasida, madhiya, faxriya ruhida bitilgan; «Buyuk hayot tongi» va «Charog‘bon» mustabid tuzum davrida urfga aylangan Leninni ulug‘lashga qaratilgan; «Baxmal» esa «bosmachilik davri» haqida sho‘ro davrida yozilgan shu mavzudagi boshqa asarlardan uncha farq qilmaydi. Toshkent zilzilasi to‘g‘risida reportaj usulida bitilgan «Palatkada yozilgan doston» ayrim yuzaki, o‘tkinchi kayfiyatlarga, gazetchilik ruhidagi hozirjavoblik bilan aytilgan gap so‘zlarga qaramay, real, hayotiy lavhalar borligi jihatidan ahamiyatlidir.

Shoirda dostonchilikda shuhrat keltirgan asarlari «Nido», «Ruhlar isyoni» hamda «Istambul fojeasi» bo‘ldi. «Nido» 1964 yili yozildi, doston hali o‘z qimmatini yo‘qotgan emas. Bu doston avvalo yuksak badiiyati, samimiyati, teran insoniyligi bilan ajralib turadi. Doston urush va inson muammosiga bog‘liq masalalarga bag‘ishlangan. Asarni shoir otasiga bag‘ishlagan. Uni o‘ziga xos doston-marsiya deb atash mumkin; asar ham marsiyaga xos mung, ham qahramonlik dostonlariga xos tantanavor ruh bilan yo‘g‘rilgan. Doston birgina qahramonning – urush tufayli otadan yetim qolgan o‘g‘lonning emas, urush jabrini chekkan million-million kishilar qalbining mungi, nidosi, urushga nafrati, minnatdor avlodlarning og‘ir jangda halok bo‘lganlar xotirasi uchun olgan qasamyodi kabi jaranglaydi.

«Nido»dan so‘ng oradan o‘n besh yil o‘tib yozilgan «Ruhlar isyoni» dostoni shoirning o‘sha paytga qadar bosib o‘tgan ijodiy yo‘lining eng baland cho‘qqichi, o‘ttiz yillik ijodiy izlanishlarining muayyan yakuni, dostonchilikdagi tajribalarining gultojidir.

«Istambul fojeasi»da hayotning boshqa bir shavqatsiz haqiqatiga duch kelamiz. Agar «Ruhlar isyoni» o‘z davridan xiyla olg‘a ketgan,

davr nopokliklariga, zulm va adolatsizlikka, qoloq odatlarga, jaholatga qarshi chiqqan jasur, mardona shaxs fojeasi bo'lsa, «Istambul fojeasi» davr to'zonlari, hayot chigalliklari ichra gangib, noxush, nomaqbul to'liqlar iskanjasiga tushib qolgan, ammo kechikib bo'lsa-da, xatosini anglagan odamlar fojeasidir. Xuddi «Ruhlar isyoni»dagi kabi «Istambul fojeasi»da ham qahramonlar qismati zamoning muhim tarixiy-ijtimoiy voqea-hodisalari 2-jahon urushi, urushdan keyingi davrda dunyodagi keskin ziddiyatlar, mamlakatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi muammolar bilan bog'liq holda talqin etildi.

«Istambul fojeasi»ni garchi muallif she'riy drama deb atagan, asar 80-yillari teatrlarda sahnaga qo'yilgan bo'lsa ham, mohiyat e'tiborli bilan doston janriga yaqindir. Shunga ko'ra, uni dramatik doston sifatida tahlil qilish lozim.

“Ruhlar isyoni” dostonining g‘oyaviy yo‘nalishi va o‘ziga xos badiiyati

“Ruhlar isyoni” dostoni, adabiyotshunoslarning e'tirofiga ko'ra. Erkin Vohidov ijodining cho'qqisi hisoblanadi.

«Ruhlar isyoni» – **qahramonlik** dostoni. Unda muallif asrimiz boshlarida chaqmoqdek charaqlab, she'riyatda o'chmas iz qoldirgan, isyonkor she'rlari bilan butun Hindiston yarim orolini larzaga solgan, hayotni el-yurt erki, baxti yo'lida fidr etgan otashin bengal shoiri Nazrul Islom jasoratini ulug'laydi. Ayni paytda «Ruhlar isyoni» – **falsafiy** doston; muallif Nazrul Islom jasorati, fojeiy qismati bahonasida shoirning, umuman ijodkorning hayotdagi o'rni, fuqarolik burchi, qolaversa, insoniylik, fidoyilik, erkka tashnalik, ijtimoiy va ma'naviy hayotning boshqa xilma-xil muammolari ustida o'yga toladi.

Bu asar faqat qahramonlik dostoni, fojeiy doston, o'y-mushohadalar dostoni bo'lib qolmay, **tarixiy saboqlar** dostoni hamdir.

Adabiyotshunos U.Normatov falsafiy, qahramonlik, fojeiy doston deb atagan E.Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoni ham shakl, ham mazmun jihatidan o'ziga xos novatorona asar. U xilma-xil she'riy shakl, ritm, hissiy ohang, ranglar, hayotiy lavhalar va rivoyatlar, shartli-simvolik ifodalar sintezidan tashkil topgan”. Haqiqatan, asarda Nazrul Islom qismatini ochib berish uchun shoir bir necha usullardan foydalangan. Shulardan biri asar matniga rivoyatlarning singdirilishidir. Binobarin, asar strukturasidan o'rin olgan: “Jaholat

haqida rivoyat”, “Abadiyat haqida rivoyat”, “Fidoiylilik haqida rivoyat”, “Shoh Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat”lar asar kompozistiyasida *psixologik tasvir vositasi* bo‘lib kelgan.

Keltirilgan rivoyatlarning tarixiyligini asoslash, undagi qahramonlarning elu yurtiga sadoqatini, fidoiyligini ta’kidlash vositasida doston qahramoni Nazrul Islomning fazilatlari bo‘rttiriladi. Qolaversa, uning o‘z ajdodlariga munosib voris ekanligi o‘rnak qilib ko‘rsatiladi. Ya’ni rivoyatlardagi epik qahramon bilan doston qahramoni Nazrul Islom o‘rtasidagi ruhiy bog‘liqlik aynan ana shu nuqtada namoyon bo‘ladi. Ularning har biri qahramon xarakteriga xos qaysidir bir muhim jihatni oydinlashtirishda aosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan.

O‘tli bir davrda dunyoga kelgan Nazrul Islom ingliz zulmi ostida ezilayotgan xalqiga najotkor bo‘lishga intildi. To‘g‘ri, xronologik vaqt va voqealar tafsiloti asarda muhim o‘rin tutmaydi. Biroq tarixiylik xususiyati sezilib turadi. Ana shu xususiyat zamonaviy she’riyatda tarixiy rivoyatlar mazmuniga murojaat qilish ehtiyojini vujudga keltirdi. Natijada E.Vohidov xalq tarixiy rivoyatlari syujetidan foydalanib, o‘z asarining g‘oyaviy mazmunini yanada kuchaytirish yo‘lidan bordi.

Asarning hayot va abadiyat xususida mulohaza yuritilgan muqaddima qismida “Abadiyat haqida rivoyat” keltirilgan. Unda sahroda tashna qolgan yo‘lovchiga obihayot suvini ichgani uchun ming yillardan buyon tirik yashayotgan, ammo yaqinlaridan ajralgani sabab yolg‘izlikda azob chekayotgan chol uchraydi. Aslida dostonda rivoyat deb ko‘rsatilgan bu voqelik afsonadir. Chunki undagi “obi hayot” timsoli – xayoliy uydirma hosilasi. Shoir undagi voqeliklar mazmunidan foydalanib, yo‘lovchi va chol obrazlariga o‘ziga xos ramziy ma’no yuklagan. Jumladan, yo‘lovchi obrazi, avvalo, bu dunyo mumtoz shoirlar aytganidek, misoli karvonsaroy ekanligini, unga qo‘nib o‘tuvchi har bir inson esa yo‘lovchi singari o‘tkinchiligini, hech kimga hayot abadiy berilmasligini anglatishga, chol obrazi odamzotning umri qancha ko‘p yashagani bilan emas, qanday mazmunda umrguzaronlik qilgani bilan bog‘liqligini uqtirishga qaratilgan. Xullas, doston mazmunidan inson ezgu ishlari va amallari bilan abadiyatga daxldor bo‘lishi mumkin degan mantiqiy xulosa kelib chiqadi.

Ushbu rivoyatning shoir qahramoni bilan bog‘liqligi shundaki,

Nazrul Islom xalqining ozodligi uchun kurashga bel bog‘ladi. Demak, u abadiyat sari yo‘l ochdi. Zero, u juda kam yashagan esa-da, umrini eng ezgu ish – xalqining erk va ozodligi yo‘liga bag‘ishladi. Shu bilan uning nomi, hayoti mangulikka daxldor bo‘ldi. Qahramon hayoti bilan bog‘liq aynan shu jihat doston mazmuniga chuqur singdirildi.

Shoir bosh qahramon ruhiyatida kechayotgan turfa holatlarni yanada hayotiy ifodalash maqsadida ikkinchi – “Fidoiylilik haqida rivoyat”ni ham keltiradi. Rivoyat qadim Hindistonda urf bo‘lgan: eri o‘lsa – xotinini, xotin o‘lsa – erini qo‘shib ko‘mish odati va unga qarshi isyon ko‘targan jangchi yigitning jasorati, fidoiyligi haqida so‘zlaydi.

Hindistonni ozod ko‘rish istagida yongan fidoiy inson Nazrul Islom jangchi o‘g‘lon singari birinchilardan bo‘lib ona xalqi bo‘ynidagi istibdod zanjirini uzishga bel bog‘laydi. Demak, rivoyatdagi jangchi o‘g‘lon va dostondagi Nazrul Islom obrazlari orasidagi mushtaraklik shunda seziladi.

Dostonda 1926-yildagi Kalkutta g‘alayoni va unda Nazrul Islomning ishtiroki voqealari bayon etiladi. Nazrul Islom xalqni to‘xtatishga harakat qilgani uchun hibsga olinadi va zindonga tashlanadi. Mana shu tarixiy voqelik mazmuniga vobasta holda shoir asarga “Jaholat haqida rivoyat”ni olib kiradi. Unda xalqni giyohlar bilan davolab, el ichra mashhur bo‘lgan tabibning qismati hikoya qilinadi. Dostonda johil olomon tomonidan tabibning olovda kuydirilishi, bu olovga ko‘zi nashtar bilan ochilgan cholning o‘tin keltirib tashlashi voqealarining berilishi nihoyatda ta’sirchan. Bu bilan shoir chol obraziga alohida mazmun yuklay olgan. Chunki uning nutqida bu dunyodagi norasoliklar, insonning xor etilishi aks etgan. Chol ham o‘zicha haq. Ammo hakim ko‘p yillik izlanishlari sarobga aylanganidan qattiq o‘kinadi va olomondan olovni balandroq yoqishlarini so‘raydi. Lekin yillar o‘tib elning aql ko‘zi ochiladi, hakimga oltindan haykal o‘rnatadilar. Hakimning achchiq qismatiga jaholat, ilmsizlik sababdir. Binobarin, Nazrul Islom va hakim qismati nihoyatda o‘xshash. Chunki Nazrul Islom ham olomon tomonidan zindonband qilinadi. Rivoyat bosh qahramoni Nazrul Islomning qalbida kechayotgan tug‘yonlarni, uning haqsizlikka qarshi isyonini yorqin ifodalashga vosita bo‘lgan.

Dostonning “Tutqunlikda” deb nomlangan qismida shoirning zindondagi hayoti aks ettiriladi. U yerda ham ozodlik yo‘lidagi

mardona kurashni boshlab bergan shoirning ko‘nglida o‘kinch-armon emas, dilshodlik hukmron. E.Vohidov Nazrul Islomning aynan shu holatiga hamohang “Shoh Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat”ni keltiradi. Ma’lumki, Avrangzeb otasi Shoh Jahondan taxtni zo‘rluk bilan tortib oladi. Shundan so‘ng o‘sha davr udumiga ko‘ra, u uy qamog‘iga mahkum etiladi. O‘g‘li tomonidan tahqirlangan Shoh Jahon uyining tor darchasidan keng olamni, sevimli “Tojmahal”ni ko‘radi va shunga ham shukr qiladi. Olomon – jaholat eli tomonidan bandi qilingan Nazrul Islom ham zax zindonning kichkina tuynugidan keng olamga nazar soladi. Demak, Shoh Jahon va Nazrul Islom qismatlaridagi mushtaraklik rivoyat orqali yorqin ifodalangan.

Umuman, doston tarkibidagi har bir rivoyat bengal xalqi ozodligi uchun kurashgan isyonkor shoir Nazrul Islom ruhiyatida kechadigan iztirobli holatlarni, ozodlikka va erkka tashna qalbning manzaralarini yorqin ifoda etishda psixologik tasvir va tahlil vositasi vazifasini bajargan. Qolaversa, mazkur rivoyatlar asarda dramatismning chuqurlashuvini ta’min etgan. Bu esa shoirning “voqelikni keskinligi, murakkabligi, fojiaiy tomonlari bilan yoritishga” undagan (32). Doston shu jihati bilan XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek dostonchiligi ufqlarini yanada kengaytirdi.

Shoir ijodi va “Ruhlar isyoni” dostoni haqida so‘zlab berish jarayonida quyidagi jadvallardan foydalanish mumkin. Bu jadvallar videoprojektor orqali ko‘rsatiladi.

1-jadval:

| Erkin Vohidov | |
|-----------------------------|---|
| Shoir rasmi | |
| 1936-yil 28-dekabrda | Farg‘ona viloyati Oltiariq tumanida ziyoli oilasida tug‘ilgan. |
| | |
| To‘plamlari | “Tirik sayyoralar”, “Sharqiy qirg‘oq”, “Bedorlik”, “Yoshlik” devoni, “Yaxshidir achchiq haqiqat”, “She’r dunyosi”, “Umrin daryosi”. |
| Dostonlari | “Nido”, “Orzu chashmasi”, “Quyosh maskani”, “Toshkent sadosi”, “Ruhlar isyoni”, “Istanbul fojiasi”, “Palatkada yozilgan doston” |

| | |
|--------------------------------------|--|
| Tarjima asarlari | I.V.Gyote “Faust”, S.Yesenin “Fors taronalari”, A.Blok, M.Svetlov, A.Tvardovskiy, R.Hamzatov she’rlari |
| Dramatik asarlari | “Oltin devor”, “Tumor” |
| She’riyatidagi mumtoz janrlar | G‘azal, qasida, muxammas |
| Mashhur she’rlari | “O‘zbekim”, “Inson”, “Zamin sayyorasi”, “O‘zbekiston”, “Sirdaryo o‘lani”, “Do‘st bilan obod uying”, “Rubobim tori ikkidur”, “Fuzuliy haykali qoshida”. |
| Mashhur misralari | “Do‘st bilan obod uying gar bo‘lsa ul vayrona ham”, “Jahon ichra mening tengsiz jahonim – O‘zbekistonim”, “Yoshligim, kel, kuyga to‘lgan Qalbim oltin sozi bo‘l”, “Seni yotlar tugal hatto qilurman rashk o‘zimdan ham...”, “Sevgi shunday navbahorki, U tikandin gul qilur”, “G‘azal ham bo‘lurmi buncha dilrabo, Bunchalar serishva, bunchalar sernoz”, “Kimni etmas bu ko‘ngil shaydo, Kim she’r yozmas mening yoshimda”. |

2-jadval.

| ERKIN VOHIDOV HAQIDAGI FIKRLAR | |
|---|---|
| N.A.Muhiddinov, davlat arbobi | Sizlar baxtlisizlar, baxtinglar shundaki, Erkin Vohidovday shoir bilan bir zamonda, bir shaharda, hatto bir mahallada yashaysizlar. Istaganda uning kitobini olib o‘qishingiz mumkin. |
| Adabiyotshunos, O‘zbekiton Qahramoni O.Sharafiddinov | Hech ikkilanmay, komil ishonch bilan aytish mumkinki, Erkin Vohidov o‘zbek she’riyatining ko‘rki va faxri. Bu fikrda zarracha mubolag‘a yo‘q. |
| Adabiyotshunos No‘mon Rahimjonov | Erkin Vohidov estetikasida insonning ma’naviy-intellektual kamolotiga alohida urg‘u beriladi. Shoirning nuqtai nazariga ko‘ra inson |

| | |
|--|---|
| | tirikligining ma'nosi, hayotining mazmuni qanday sharoitda va muhitda bo'lishidan qat'iy nazar, o'z shaxsida komillik xislat-xususiyatlarini takomillashtirishga muttasil intilishdan iborat. |
| O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov | Mana bir necha o'n yildirki, biz dilbar bir she'riyatning muattar havosidan bahramand bo'lib kelayotirmiz. Bu Erkin Vohidov she'riyatidir. Ona tilimizdagi ipakdek mayin, kamalakdek rang-barang, g'oyat nozik lutf, beozor qochirimlar, goh hazin, goh samimiy tabassum uyg'otuvchi tashbehlar, o'tkir xulosalar - bular bari ulkan shoirimizning qalamiga mansub betakror fazilatdir. Men Erkin Vohidovni she'riyatda o'ziga xos sehr sohibi deb bilaman... |


Erkin Vohidov ijodi bo'yicha BBB usuli


| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|--|--|---|
| E.Vohidov yangi o'zbek she'riyatining yorqin vakillaridan biri. "O'zbekim", "Inson", "Do'st bilan obod uying" kabi mashhur she'rlar, "Nido", "Ruhlar isyoni" dostonlarining muallifi | Adabiyotshunoslikda shoir ijodini o'rganilishi. E.Vohidov haqida qaysi ijodkorlar qanday janrlarda asarlar yozilgan? "Ruhlar isyoni" dostonining umrboqiy asar ekanligining sababi nimalarda ko'rinadi. Shoir yana qanday adabiy janrlarda ijod qilgan | Adabiyotshunosligi mizda N.Karimov, N.Rahimjonov, U..Normatov kabi olimlar E.Vohidov ijodini o'rganishgan. U mumtoz lirik janrlardan: g'azal, qasida, muxammas kabilar samarali ijod qildi. Ayniqsa, shoirning mahorati zamonaviy aruzni rivojlantirganida yorqin ko'rinadi. E.Vohidov serqirra ijodkor. Bir qator dostonlar ("Orzu chashmasi", "Istanbul |

| | | |
|--|--|--|
| | | fojiasi”, “Toshkent sadosi”), komediya (“Oltin devor”), hajviy turkum (“Donishqishloq latifalari”) kabilarni yaratgan. “Ruhlar isyoni” dostoni tarixiy mazmunga ega. Unda mashhur bengal shoiri Nazrul Islomning yorqin qiyofasi halq rivoyatlari va naqlari asosida ochib berilgan. |
|--|--|--|

Dostonni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘tishni tashkil qilish yo‘llari

Dostonning yo‘nalishlari tahlil qilinadi va ularning quyidagi chizmasi beriladi:





Dostonni o‘rganishda savol va topshiriqlardan foydalanish

“Zakovatli zukko” metodi asosida tezkor savollar

1. Erkin Vohidovning bolalik yillari xususida nimalar bilasiz?
2. Erkin Vohidov qayerlarda tahsil olgan?
3. Shoirning ilk ijodi va adabiyodagi dastlabki qadamlari haqida nimalar bilasiz?
4. Shoir she’riyatining asosiy mavzulari qaysilar?
5. E. Vohidov lirikasining shakliy xususiyatlari xususida so‘zlang.
7. Shoirning qanday dostonlarini bilasiz?
8. “Nido” dostonining shoir biografiyasi bilan mushtarak jihatlari

haqida nima deya olasiz?

9. “Ruhlar isyoni” dostonining kompozitsiyasida qanday janrlardan foydalanilgan.

10. Dostondagi rivoyatlarni sanab bering.

11. “Jaholat haqida rivoyat”dagi qaysi obraz Nazrul Islom xarakterini aks ettiradi.

12. “Abadiyat haqida rivoyat”dan kelib chiqadigan xulosa nimalarda ko‘rinadi?

13. “Fidoiyluk haqida rivoyat”dagi yigit qaysi jihat bilan Nazrul Islomga mutanosib keladi?

14. Dostondagi naqlar mazmuni haqida gapirib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. –Т.: Ўзбекистон, 2009.

2. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

3. Алиев А. Истиқлол ва адабий мерос. – Т.: О‘zbekiston, 1997.

4. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1999.

5. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.

Erkin Vohidov asarlari:

6. Эркин Воҳидов. Муҳаббатнома. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.

7. Эркин Воҳидов. Садоқатнома. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.

8. Эркин Воҳидов. Сайланма. 4 жилдлик. –Т.: Шарқ, 2001.

9. Эркин Воҳидов. Изтироб. –Т.: Ўзбекистон, 1992.

10. Эркин Воҳидов Яхшидир аччиқ ҳақиқат. –Т.: Нур, 1992.

11. Эркин Воҳидов Орзули дунё. –Т., 2010.

Erkin Vohidovga bag‘ishlangan tadqiqotlar

12. Шарафиддинов О. Талант – халқ мулки. – Т.: Фан, 1983.

13. Худойберганов Н. Довонлардан доволарга. Китобда: Ҳақиқат ёғдулари. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984.

14. Шукуров Н. Шоирнинг юлдузи. Адабий портрет. Китобда: Адабий портретлар. – Т.: 1985.
15. Норматов У. Замон ва замин ташвишлари// Ёшлик, 1986, № 7.
16. Шарафиддинов О. Халқ устозим, мен эса толиб // Шарқ юлдузи, 1986, № 12.
17. Воҳидов Р., Ҳошимова М. Поэзия – шоир қалби. –Т.: Фан, 1987.
18. Иноғомов Р. Шоир бўлиш осонмас. Т., Ғ. Ғулом номидаги нашриёт, 1996.
19. Назаров Б. XX аср ўзбек адабиётида Эркин Воҳидов ижодининг ўрни ва аҳамияти. Китобда: Ўзбек адабий танқиди. Антология. –Т.: Турон-иқбол, 2011.
20. Солижонов Й. Руҳиятни ёритган шеърят// Шарқ юлдузи, 2013, №2.
21. Норматов У. Кўнгилларга кўчган шеърят. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006.
22. Баҳодир Раҳмон. Ҳаётимсиз одамлар!.. –Т.: Истиқлол нури 2016.
23. Қувватова Д. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonчилигининг тараққиёт хусусиятлари. ДД. – Т., 2016.

Internet saytlari:

24. www.alishernavoiy.uz
25. www.ziyo-net.uz
26. www.literature.uz
27. www.kutubxona.uz.

MAVZU: ABDULLA ORIPOV LIRIKASI



Reja:

- 1. Abdulla Oripovning hayot va ijod yo‘li.**
- 2. Shoir lirikasining o‘ziga xos xususiyatlari: mavzular va obrazlar olami.**
- 3. “Birinci muhabbatim”, “Sen bahorni sog‘inmadingmi” she‘rlari tahlili.**
- 4. Shoir she‘rlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘rganish.**
- 5. Test topshiriqlari.**
- 6. Xulosa.**



Abdulla Oripovning hayot va ijod yo‘li **(1941-2016)**

Abdulla Oripov XX asr o‘zbek she‘riyatining zabardast vakillaridan biridir. Uning asarlari adabiyotimizning yangi bosqichga ko‘tarilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu she‘riyat Chingiz Aytmatov, Rasul Hamzatov, Yevgeniy Yevtushenko, O‘ljas Sulaymonov ijodi yanglig‘ siyosat va mafkura ustuvor bo‘lgan tuzum sharoitida ham toza iqtidor tufayli badiiy ijodning ajoyib namunalari yaratilishi mumkinligini ko‘rsatgan o‘zbek adabiyoti misolidagi o‘ziga xos noyob hodisadir. Bu noyob ijod xalqaro miqyosga chiqdi. Shoir asarlari qozoq, turkman, qirg‘iz, tojik, ozarbayjon, tatar, turk, boshqird, uyg‘ur, qoraqalpoq, rus, ukrain, ingliz, belorus, nemis, venger singari yigirmaga yaqin tilda tarjima qilindi. «Hakim va ajal» dostoni Bayrutda ingliz tilida bosilib chiqdi.

XX asr o‘zbek she‘riyatining so‘nggi 30-35 yillik tarixida A. Oripov qadar tanqidchilik e‘tiboriga tushgan shoir kam topiladi. Shu davr she‘riyati haqida fikr yuritilgan biron-bir salmoqli tadqiqot, ilmiy ish, sharh yo‘qki, unda A.Oripov asarlariga munosabat bildirilmagan, she‘rlari tahlil etilmagan bo‘lsin. Uning ijodidan dissertatsiyalar yoqlandi. Atoqli olim Matyoqub Qo‘shjonov «Onajonim, she‘riyat» nomli kitobida shoirning mo‘jaz ijodiy portretini yaratdi. Bundan o‘ttiz besh yilcha avval matbuotda A.Oripovga ilk bor oq yo‘l tilagan, uning kelajagiga katta ishonch bildirgan va ko‘p o‘tmay bu ishonch oqlanib, she‘rlaridagi mahoratni hassoslik bilan tahlil qilgan Ozod Sharaffidinov maqolalari shoir ijodini o‘rganish bilan birga, tanqidchiligimiz ravnaqida ham muhim ahamiyat kasb etdi. Ayni choqda yaqindagina Matyoqub Qo‘shjonov, Suvon Meliyevlarning «Abdulla Oripov» nomli adabiy portreti nashr etildi.

Salohiddin Mamajonov, Umarali Normatov, Naim Karimov, Ibrohim G‘afurov, Begali Qosimov, No‘mon Rahimjonov, Ibrohim Haqqulov, Botirxon Akramov, Botir Norboyev, Suvon Meliyev, Mixli Safarov, Ochil Tog‘ayev, Nodira Afoqova va boshqalarning ehtiros bilan yozilgan ishlari shoir asarlarining g‘oyaviy va poetik teranligini, o‘ziga xosligini, go‘zallik sirlarini ochishga qaratilgan.

Abdulla Oripov **1941 yil 21 mart** kuni Qashqadaryo viloyatining hozirgi Koson tumaniga qarashli **Neko‘z** qishlogida tugilgan. Otasi **Orif bobo Ubaydullo o‘gli** qariyb yuz yil umr ko‘rdi. U kishining

butun hayoti qishloq hududida mehnat bilan o'tgan. Onasi **Turdi Karvon qizi** 1966 yilda vafot etgan. Shoir shunday yozadi: «Onam tabiatan g'oyat ta'sirchan ayol edilar. O'choq boshidami, tandir yonidami, ish bilan mashg'ul chog'larida qadimiy mahzun baytlarni takrorlashlari hanuzgacha esimdan chiqmaydi.

Gulira'noning tagida yuvma sochingni, yuvma sochingni
Shahlo ko'zginangdan to'kma yoshingni, to'kma yoshingni
Shahlo ko'zginangdan to'ksang yoshingni, to'ksang yoshingni,
Olarman-da ketarman yolg'iz boshimni, yolg'iz boshimni».

Oilada 8 farzand: 4 o'g'il, 4 qiz voyaga yetgan. O'g'illardan kenjasi Abdulla Oripov edi. Akalari turli oliygohlarda tahsil olishgan.

U **1958 yilda** o'rta maktabni oltin medal bilan tamomlab, ToshDU (hozirgi O'zMU) jurnalistika fakultetiga o'qishga kiradi.

Adabiyotshunos M.Qo'shjonov, A.Oripovni shoir qilgan muhit, makon xususida shunday yozadi: «Neko'zning sharqida uncha baland bo'lmagan, ko'proq yirik tepalikni eslatadigan eski tog' yastanib yotadi. Uni neko'zliklar Qo'ng'irtov deb ataydilar. Mabodo biror sabab bilan Neko'zga borib qolsangiz. A.Oripov sizni, albatta bu ko'hna toqqa olib chiqadi. «Men shu tog'da mol boqqanman, qo'y haydaganman, mana bu tog' kovaklarida qattiq shamol va yong'irlarda bekingan paytlarim bo'lgan» – deb alohida hayajon bilan butun tog'ni nigohdan o'tkazadi.

Ehtimol, ijodida keyinchalik mashhur bo'lgan «Vatanim manim» degan muqaddas tushunchalar A.Oripov dilida o'sha bolalik chog'lari – Qo'ng'irtovda qo'y boqib yurgan kezlari tug'ilgandir».

Abdulla Oripov uchun eng katta maktab hayot edi. Bolalik chog'laridagi mehnat qaynagan qishloq hayoti taassurotlari, maktab va universitetda o'qish va o'rganish, keyin jurnalist sifatida hayotning o'nqir-cho'nqirlarini asta-sekin anglab olish, ijod dardi, bu xususda eshitilgan yaxshi-yomon gap-so'z va munosabatlar, ba'zilardan ko'rgan xayrixohlik, ba'zilardan esa hasadu haqsizliklar.

50-yillarning oxirlari. Toshkent davlat universitetining filologiya fakulteti qoshidagi adabiyot to'garagida hali yosh, hatto murg'ak yigitcha Abdulla Oripov o'qigan birinchi she'r «**Archa**» deb atalgan edi.

O'ngirlardan bo'y cho'zgan buyuk
Vodiylarda ajib bir gultoj
Mana men deb turardi archa

Ko'targancha boshlarida toj.

She'rda majoziy ma'no bor. Qoyalar tushidan olib, toshyo'nar usta tegirmon yasamoqchi. Nima bo'ladi-yu, qoyadan ajralib kelayotgan tosh qulaydi, pastga tushib yosh archani poymol etadi. Archaning ahvoli achinarli edi. Uning majruh tanasi tosh tagidan boqardi. Vaqtlar o'tdi. Toshyo'nar ustaning yo'li yana shu qoya tomon tushdi. Archa ko'kka bo'y cho'zgan edi. Demak, hayotga intilayotgan buyuk tabiat, boshiga har qancha kulfat tushmasin «Yengaman, o'saman, ko'rkam bo'laman» deydi.

A.Oripovning «**Buloq**» degan bir she'ri bor:

Qutlug' bir saharda ko'z ochdi buloq
Yo'l soldi daryolar sari adashib
Unga rahm etmoqchi odamlar shu choq
Tog'u toshlar aro yaqin yo'l ochib
Odamlar, tegmangiz, mayli toshsin u,
Mayliga, tog'ni ham ko'rsin yo'lida.
Qo'ying, o'z yo'lini o'zi topsin u
Zavqlanolsin u ham kurash so'ngida.

Bunda ijodkorning hayot haqidagi falsafiy qarashlari aks etgan. Shoirni o'stirib voyaga yetkazadigan qulay ijodxonalar yo'q. U hayotning har xil sharoitida – issiq-sovug'i, baland-pasti, o'nqir-cho'nqiri, qing'ir-qiyshiq joylaridan o'ziga yo'l topib o'tadi va asta-sekin ijodkor sifatida shakllanadi.

Abdulla Oripov adabiyotda biryoqlamalik, ritorika, deklarativlik, bayonchilik, «baxtli zamon»ga hamdu sano o'qish avj olgan, adabiyotning ijtimoiy-estetik qimmatidan putur keta boshlagan bir davrda she'riyat ostonasiga qadam qo'ydi. Har bir shoir singari u ham havaskorlik, izlanish bosqichini bosib o'tdi. Yulduzlar, tog'lar, kapalak haqida yozdi. Ulardan she'r izladi. Biroq u o'qish-o'rganish bosqichini tez bosib o'tdi, she'riyatining missiyasini, inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini juda erta angladi.

1962 yilda matbuot yuzini ko'rgan «**Kuz xayollari**», 1964 yilda «Sharq yulduzi» jurnali sahifalarida e'lon qilingan «**Men nechun sevaman O'zbekistonni?**», «**Miltiraydi mitti yulduz**» «**Burgut**» kabi she'rlar o'z ovozi va uslubiga ega bo'lgan shoir shakllanayotganidan darak beradi. Shoirning Sobiq Ittifoqda stalincha zo'ravonlik sharpalari ham butkul daf bo'lmagan, mustabid tuzum hukmronlik qilishda davom etayotgan, adabiyot esa «sotsrealizm»

iskanjasi ostida ezilayotgan bir paytda isyonkor ruh bilan sugʻorilgan, tugʻyonli, lirik-falsafiy, teran mushohadali, hayotni oʻzicha koʻrgan chinakam milliy va xalqchil sheʼrlari ogʻir sukunatni titratib yuborgan momaqaldiroq yangligʻ yangradi.

Shoir lirikasining oʻziga xos xususiyatlari: mavzular va obrazlar olami

A.Oripovning birinchi sheʼriy toʻplami «**Mitti yulduz**» 1961 yilda nashr etildi. «Mitti yulduz»ning nurlari asosida «**Sarob**», «**Bahor**», «**Avlodlarga maktub**», «**Sovgʻa**», «**Minorayi kalon tepasidagi laylak**», «**Jannat**» singari har biri adabiyotimizda voqea boʻladigan sheʼrlar yaratildi. Binobarin, A.Oripov»Ustozlar sabogʻi» maqolasida shunday yozadi: “Har haftada oʻnlab sheʼrlar yaratilyapti, lekin «Baxtlar vodiysi», «Yalovbardorlikda», «Sogʻinish», «Sen yetim emassan» singari har bir xalq tarixidagi butun bir davrni ifodalab bera oladigan poydevor sheʼrlar deyarli yoʻq. Yoshlar zamonamizning eng yirik poetik nuqtalarini nishonga ololmayaptilar, koʻpgina yaxshi shoirlarimizning misralari mijgʻov, avji past chiqayotir. Chunki poetik gʻoyaning oʻzi aytarli salmoqqa ega emas. Mavzu qanchalik salmoqdor boʻlsa, poetik ohang ham shunchalik yuksak boʻladi. Gʻafur Gʻulom «Alisher» nomli sheʼrida oʻzbek xalqining butun bir oʻtmishini qamraydi. Natijada, boʻyiga yarasha toʻn deganlaridek “Boyqaro saroyin shamlari oʻchdi” singari shekspirona baland ruhli misralar yaratdi». Bu fikrni keltirayotganimiz bejiz emas. Chunki A.Oripov dastlabki sheʼrlaridanoq salmoqli fikr aytishga harakat qildi va bu uning ijodiy printsiptiga aylandi.

Yillar davomida uning bir qancha toʻplamlari dunyo yuzini koʻrdi. «**Koʻzlarim yoʻlingda**» (1966), «**Onajon**» (1969), «**Ruhim**» (1969), «**Oʻzbekiston**» (1972), «**Hayrat**» (1974) «**Yurtim shamoli**» (1976) («**Veter moego kraya**» (1988)), «**Yuzma-yuz**» (1978), «**Najot qalʼasi**» (1980), «**Yillar armoni**» (1987), «**Ishonch koʻpriklari**» (1989), «**Sen bahorni sogʻinmadingmu**»(1991), «**Munojot**» (saylanma 1992), «**Haj daftari**», «**Hikmat sadolari**»(1992) kabi toʻplamlari shular jumlasidandir. Ushbu toʻplamlar asosida shoirning Tanlangan Asarlari tartib berildi. Bugun u bizning qoʻlimizda.

A. Oripov isteʼdodli shoir boʻlish bilan birga, yetuk tarjimon

hamdir. U Dante Alig‘erining «**Ilohiy qomediya**»si «**Do‘zax**» qismini mahorat bilan o‘zbekchaga o‘girdi.

A.Oripov Pushkin, T.Shevchenko, L Ukrainka, Q.Quliyev, Sergey Baruzdin ijodidan mukammal tarjimalar qildi.

Dostoyevskiyda shunday fikr bor: «She‘riyatda eng avvalo hislar samimiyligi va tuyg‘ular tarangligi kerak». Zero, A.Oripov adabiyotimizga samimiy hislar bilan kirib keldi. Shoir she‘riyati mavzu jihatdan rang-barang. Vatan, Ona-yer, xalq, oq sut bergan ona, muhabbat kabilar shoirning muqaddas va doimiy mavzularidandir.

Shoir ko‘pincha o‘zini bezovta qilgan, oromini o‘g‘irlagan mavzu ustida kunlab, oylab mulohaza yuritadi, fikrlari obdon pishgach qo‘liga qalam oladi.

Shoir asarlarining asosiy qismini XX asr o‘zbek she‘riyatidagi yetakchi shakl-barmoq vazni tashkil etsa-da, u ko‘p asrlik an‘anaga ega bo‘lgan aruzdagi g‘azalga ham, masnaviyga ham, Mayakovskiy, Nozim Hikmat, Lorkalar ta‘sirida paydo bo‘lgan sarbastga ham murojaat qilib turadi.

Masnaviyda ijod etish mushkul ekani ma‘lum. A. Oripov unga dadil qo‘l urdi va eng asosiysi, bir qancha muvaffaqiyatli asarlar yaratdi. «Shoshmaslik haqida ballada», «Begonalik», «Uzlat», «Maymuniyat» kabi she‘rlar shular jumlasidandir.

Shoirning butun she‘riyati singari muhabbat lirikasi ham o‘ziga xosligi, teranligi, tuyg‘ularning tabiiyligi, hayotiyligi, real voqelikka monandligi bilan ajralib turadi. Sevgi haqidagi hazin, mungli ohanglar har qanday oh-vohlar, o‘ldim-kuydimlardan tamomila yiroq.

«Eslang», «Derazangni qoplar oqshom zulmati», «Chuvaladi o‘ylarim sensiz», «Xayr endi» kabi o‘nglab she‘rlarni ko‘ngilxushlikdan butunlay begona chinakam oshiqning yuksak pardalarda ifodalangan ohi, nidosi deyish mumkin. Shoir nazdida sevgi talqini, vafo va sadoqat tushunchalari ma‘naviy qadriyatlarimiz, milliy urf-odatlarimiz chashmasidan suv ichadi.

Shoirning «Muhabbat» she‘ri bunday boshlanadi:

Hayot mendan ayamadi ne‘matlarini
Ne istasam berdi doim, hech bir tonmayman.
Faqatgina bir g‘am o‘rtar yuraklarimni
Men muhabbat taqdirimdan maqtan olmayman.

Lirik qahramon o‘zining rad etilgan, javobsiz qolgan sevgisi tarixini hech kimdan yashirmasdan to‘kib soladi. She‘rda Odam Ato

va Momo Havodan meros mo'jizaviy tuyg'uning odam ba'zan hatto o'z-o'ziga ochiq iqrор bo'lishiga botinavermaydigan pinhoniyl jihatlarl qalamga olinadi.

Ona haqidagi she'rlar va umuman, ona obrazi shoir ijodidagi ayol obrazini yanada mukammallashtiradi va konkretlashtiradi, bu timsolni oliyl maqomlarga olib chiqadi. Shoirning «Ko'zlarim yo'lingda», «Onajon», «Ruhim», «Yurtim shamoli», «Yillar armoni» «Ishonch ko'priklari» singari to'plamlaridagi she'rlar bag'ridan mushtipar ona ko'zlari doimo bizga termulib turadi. Bu to'plamlarning «Onamga xat», «Onajon», «Ona», «Alisherning onasi», «Onamni eslab» singari ona timsoliga maxsus bag'ishlangan she'rlar o'rin olgan. «Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi» nomli fantastik she'rida ham ona va mehr muammosining o'ziga xos talqiniga duch kelamiz.

Shoir she'rlarida uch oliyl tushunchaga ona nisbatini beradi: onavatan, ona she'riyat, ona sayyora.

«Onajon» she'ri shoirning mumtoz asarlaridan biri. Bu she'r volidayi muhtaramasi qarshisida ayni vaqtda elning buyuk san'atkori bo'lgan A.Oripovning ona haqidagi guhar tuyg'ulari talqinidan tizilgan marjondir. Abdulla Oripov bu she'rida mehribon volidaning nurli qiyofasini yaratadi.

Ota – ulug' zot. Uni madh etuvchi she'rlar ham anchagina. «Tabiat» deb atalgan she'rida shunday misralar bor:

O'tgan kunlarimga boqib muntazir-
Sog'inchdan yonadi yongan bu jonim
Afsuski, yonimda emassiz hozir,
Donishmand ustozim - siz otajonim .
Endi men eslayman, ko'zlarimda nam
Hikmatli so'zlarning otash sehrini
Qo'msab talpinaman gohi-gohi dam
Donishmand otamnning shafqat, mehrini
Shunday paytda o'zing aylagil shafqat
Ota bo'la qolgil, menga, tabiat.

Yoxud boshqa bir she'rida «Otalar ilgida zamon bilan vaqt» deb yozadi. «Qarshi qo'shig'i» she'rini otasiga bag'ishladi.

Qaysi bir shoir o'z vatani haqida she'r yozmaydi? Qaysi bir kitobxon Oybekning «Bir o'lkaki, tuprog'ida oltin gullaydi» deb boshlangan «O'zbekiston» she'rini qayta-qayta o'qimaydi deysiz?

Biroq A.Oripov na Oybekni takrorlaydi, na Hamid Olimjonni va na Uyg'unni. Oybekda O'zbekistonning tarixiga tegishli voqealar qiyoslangan, H.Olimjonda go'zal o'lka bahor nafasiga yo'g'rilib romantik ohangda beriladi. Uyg'un Vatanining qudratiga urg'u beradi. A.Oripov esa «O'zbekiston» she'rida ustozlardan saboq olib, ularni takrorlamagan holda, vatani haqida jozibali she'r yaratadi.

U she'rda qariyb ming yillik tarixni mujassam etadi. Xalqi yaratgan ulug' siymolar taqdirini jamlaydi, «Deding, paxtam qoldi-ku axir, yig'ishtiray kelmasdan ayoz» deya, orom olishni bilmasdan sovuq dalada ter to'kayotgan yalangto'sh bobodehqon obrazini joylaydi. Shoir ulug'lar shajarasini Beruniydan boshlaydi:

Uxlar edi Kolumb ham hali

Dengiz ortin yoritdi ilk bor

Beruniyning aql mash'ali.

Osmon ilmi tug'ilgan ilk bor,

Ko'ragoniy jadvallarida» deya davom ettiradi shoir. Yoxud Navoiy dahosini shunday ta'riflaydi.

Temur tig'i olmagan joyni

Qalam bilan oldi Alisher.

Shular asosida shoir ulug' xalqqa ta'rif beradi.

U suhbatlaridan birida «Sevinchim-dardim Vatan» deyishi bejiz emas. Shoir «Yurtim shamoli», «O'zbekistonda kuz», «Qarshi qo'shig'i», «Kenglik nuqtasi», «Toshkent sha'niga», «Momo oftob», «Men nechun sevaman O'zbekistonni?» kabi o'nlab she'rlarida Ona-Vatanning zavol bilmas qiyofasini yaratadi.

O'zbekiston mustaqilligi munosabati bilan A.Oripov ijodida ona-yurt va Vatan mavzuining yangichi talqinlari, maydonga keldi. «Adolat oftobi», «Uyg'onish zamon», «Erk haqida» she'rlari ana shular jumlasidandir.

Shoirning dostonlari ham adabiyotimizda voqea bo'lgan asarlar sirasiga kiradi. Bu jihatdan «Jannatga yo'l», «Hakim va ajal» dostonlari xarakterli. «Jannatga yo'l» (1978) turg'unlik davri avj olgan pallalarda juda katta qiyinchiliklar bilan dunyo yuzini ko'rdi. Asar bosilib chiqqandan keyin ham malomat toshlari to'xtamadi. Shoir «sovet voqeligini» buzib ko'rsatishida ayblandi. Markazqo'mning, shaxsan uning 1-kotibining topshirig'iga muvofiq tuzilgan nufuzli komissiyaning xulosasigina asarga qarshi qaratilgan hujum poyini bir darajada qirqqandek bo'ladi. Aslida bugungi kun

nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, diniy-mifologik, hayotiy-fantastik shakllardan foydalanib bitilgan ushbu dostonda chindan ham «sovet voqeligi buzib ko‘rsatilganligi» ayon bo‘ladi.

«Hakim va ajal» dostoni (1990) A.A.Ibn Sinoning 1000 yilligiga bag‘ishlab yozilgan. Unda Hakim, Malika, Mirzo timsollari berilgan. Yomonlikka qarshi o‘t ochish qayta qurish yillarida yozilgan «Ranjkom» dostonining ham bosh g‘oyasini tashkil etadi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng 1995 yilda bitilgan «Sohibqiron» she‘riy dramasi shoir ijodiga ham, adabiyotimiz rivojida ham o‘ziga xos o‘rinda turadi.

90-yillar avvalida vujudga kelgan imkoniyatlar, mustaqillik, dinga munosabatdagi hurfikrlilikning qaytishi, «Qur‘on» va «Hadislar»ning e‘lon qilinishi A.Oripovga ham ilhom buloqlari ko‘zini ochdi. «Haj daftari», «Hikmat sadolari» turkumi diniy-falsafiy ruhdagi she‘rlardan tarkib topgan. «Hikmat sadolari» 40 ta she‘rdan tashkil topgan. A.Oripov 1992-yili haj safarida bo‘ldi. Safar natijasi o‘laroq «Haj daftari» turkum she‘rlari maydonga keldi.

A.Oripov XX asr o‘zbek adabiyoti, qolaversa, uzoq asrlik o‘zbek adabiyoti tarixida munosib o‘rin egallaydi.

Shoir hayot yo‘li va she‘rlari haqida so‘zlab berish jarayonida quyidagi jadvallardan foydalanish mumkin. Bu jadvallar videoprojektor orqali ko‘rsatiladi.

1-jadval:

| Abdulla Oripov | |
|---------------------------|--|
| Shoir rasmi | |
| 1941 yil 21 martda | Qarshi viloyati Koson tumani Neko‘z qishlog‘ida bog‘bon oilasida tug‘ilgan. |
| Ilk she‘ri | “Archa” (1959) |
| Ilk she‘riy kitobi | “Mitti yulduz” (1961) |
| To‘plamlari | “Ko‘zlarim yo‘lingda» (1966), «Onajon» (1969), «Ruhim» (1969), «O‘zbekiston» (1972), «Hayrat» (1974) «Yurtim shamoli» (1976) («Veter moego kraya» (1988)), «Yuzma-yuz» (1978), «Najot qal‘asi» (1980), «Yillar armoni» (1987), «Ishonch ko‘priklari» (1989), «Sen bahorni sog‘inmadingmu»(1991), «Munojot» (saylanma |

| | |
|-------------------------------|---|
| | 1992), «Haj daftari», «Hikmat sadolari»(1992) |
| Dostonlari | “Hakim va ajal”, “Jannatga yo‘l”, “Ranjkom”, |
| Tarjima asarlari | Dante Aligeri “Ilohiy komediya”, Lesya Ukrainka “Mag‘oralarda”, Enyo Xeltai “Soqov ritsar”, A.Pushkin, T.Shevchenko, Q.Quliyev she‘rlari |
| Dramatik asari | “Sohibqiron” |
| She‘riyatidagi janrlar | G‘azal, masnaviy, barmoq vaznidagi she‘rlar, to‘rtliklar |
| Mashhur she‘rlari | «Sarob», «Bahor», «Avlodlarga maktub», «Sovg‘a», «Minorayi kalon tepasidagi laylak», “Birinch muhabbatim”, “Sen bahorni sog‘inmadingmi”, “O‘zbekiston”, “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?”, “Onajon”, “Ishonch ko‘priklari” |
| Mashhur misralari | “Bir o‘lka bor dunyoda biroq, Bitilmagan dostondir bori”, “Tug‘ilsang baxt bilan kamol o‘shadir, Tark etsang olamni zavol o‘shadir”, “Nigohimdan faqat sen pinhon, sen bahorni sog‘inmadingmi?”, “Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun Sevgan farzand bo‘lsa kechirma aslo”, “Dunyoda diyonat hali mavjuddir, Hali mard yigitlar yashab yuribdi”. |

2-jadval.

| ABDULLA ORIPOV HAQIDAGI FIKRLAR | |
|--|---|
| <i>B.Nazarov, akademik</i> | Abdulla Oripov XX asr o‘zbek she‘riyatining zabardast vakillaridan biridir. Uning asarlari adabiyotimizning yangi bosqichga ko‘tarilishida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu she‘riyat Chingiz Aytmatov, Rasul Hamzatov, Evgeniy Evtushenko, O‘ljas Sulaymonov ijodi yanglig‘ siyosat va mafkura ustuvor bo‘lgan tuzum sharoitida ham toza iqtidor tufayli badiiy ijodning ajoyib namunalari yaratilishi mumkinligini ko‘rsatgan o‘zbek adabiyoti misolidagi o‘ziga xos noyob hodisadir. |

| | |
|---|---|
| Taniqli yozuvchi Abdulla Qahhor | She'riyatda kutilmagan yangi nafas paydo bo'ldi. Tomchini kuzatgan bo'lsangiz, to'lishgandan keyin tomadi. Abdullajonning she'rlari ham ana shunday. Oldin so'zma-so'z, satrma-satr yuragi qonida qaynab pishadi. |
| Adabiyotshunos Salohiddin Mamajonov | Abdulla Oripov she'riyatining tomirlari suv ichgan manbalar, shubhasiz, o'zbek xalqining hayoti va taqdiridir, uning o'tmishi va bugunidir, mumtoz she'riyatimiz va hozirgi adabiyotimizdir. |
| Adabiyotshunos No'mon Rahimjonov | Abdulla Oripov zamondoshlari qalbining yangi qatlamlarini poetik tadqiq etishda yangi-yangi ifoda vositalarini topadi. Ya'ni satrlarni fikriy va hissiy obrazlar bilan boyitishga alohida diqqat qiladi. Shu boisdan falsafiy-publististik ruh bilan yo'g'rilgan lirikasi talabada chuqur o'y-mushohadalar uyg'otadi. |

Shoir she'rlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'rganish.

Abdulla Oripov ijodi bo'yicha tezkor savollar

2. A.Oripovni shoir qilib yetishtirgan muhit haqida nima deya olasiz?
3. A.Oripovning ilk she'ri qaysi va u qachon qayerda chop etildi?
4. Shoirning birinchi she'riy to'plami qanday nomlanadi va qachon chop etilgan?
5. Shoir lirikasining asosiy mavzulari qaysilar?
6. Shoir lirikasida qanday janrlar mavjud?
7. Onaning nurli qiyofasi aks etgan qanday she'rlarni bilasiz?
8. «Tilla baliqcha» she'ri da hovuz nimani bildiradi?
9. «Nigohimdan faqat sen pinhon» satridan nimani tushundingiz?
10. «Sen bahorni sog'inmadingmi» she'rida qanday tuyg'u-kechinmalar aks etgan?
11. «Birinchi muhabbatim» she'rining qofiyalanish tartibini tushuntiring.
12. Qofiyadosh so'zlarning she'r mohiyatini ochib berishdagi o'rnini izohlang.
13. «Ayro ham tushdim ba'zan qalb bilan, imon bilan» satrini ma'nosini yoritib bering.

14. “Lekin inson hamisha bir hisga asir ekan” satrida lirik qahramonning qanday armonli kechinmalari aks etgan.

A.Oripov ijodi bo‘yicha test topshiriqlari

1. A.Oripov adabiyot olamiga qaysi davrda kirib keldi?

A) O‘tgan asrning 50-yillarida B) O‘tgan asrning 60-yillarida S) O‘tgan asrning 60-70 yillarida D) O‘tgan asr o‘rtalarida

2. Qaysi she‘rini yurakda armon bo‘lib qolgan muhabbat haqidagi mungli, hazin kuyga qiyoslash mumkin?

A) “Muhabbat” B) “Onajon” S) “Birinchi muhabbatim” D) “Sen bahorni sog‘inmadingmi?”

3. O‘tgan kunlarimga boqib muntazir-

Sog‘inchdan yonadi yongan bu jonim

Afsuski, yonimda emassiz hozir,

Donishmand ustozim – siz Quyidagi satrlar shoirning qaysi she‘ridan olingan va nuqtalar o‘rniga qaysi so‘zni qo‘yish mumkin?

A) “Otalar ilgida zamon bilan vaqt”, otajonim. V) “Tabiat”, otajonim.

S) “Onajon”, onajonim. D) “Yillar armoni”, onajonim.

4. A.Oripov qaysi she‘rida qariyib ming yillik tarixni mujassam etadi?

A) “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” B) “Qarshi qo‘shig‘i” S) “O‘zbekiston” D) “Bahor”.

5. Shoirning qaysi she‘ri volidayi muhtaramasi qarshisida ayni vaqtda elning buyuk san‘atkori bo‘lgan A.Oripovning ona haqidagi guhar tuyg‘ulari talqinidan tizilgan marjonga qiyos etiladi?

A) “Ona” B) “Alisherning onasi” S) “Onamni eslab” D) “Onajon”.

6. “Birinchi muhabbatim” she‘ridagi qaysi so‘zlar kalit so‘zlar vazifasini o‘tagan?

A) Har bir banddagi qofiyadosh so‘zlar. Chunki bu so‘zlar lirik qahramonning armonli, iztirobli kechinmalarga to‘la turli holatini ifoda etishga ko‘maklashgan. B) Har bir band oxirida takror vazifasini o‘tagan “Birinchi muhabbatim” birikmasi, bu birikma orqali lirik qahramonning o‘sha damdagi holati aks ettirilgan. S) She‘r banlarida radif vazifasini o‘tagan so‘zlarda, chunki lirik qahramon orzularga limmo-lim holatini ochib beradi. D) she‘rdagi deyarli barcha so‘zlar.

7. Holbuki orzulardan judo ham bo‘lganim yo‘q,

Oy kabi to‘lganim yo‘q, yulduzday kulganim yo‘q,

Erta xazon gul kabi sarg‘ayib so‘lganim yo‘q... Quyidagi satrlarda

qanday hayotiy mazmun o‘z ifodasini topgan?

A) Lirik qahramon qalbi birinchi muhabbat iztiroblaridan ozurlangan esa da, hayot bardavom. Shu bois u eng yaxshi orzular og‘ushida hayotini mazmunli ko‘radi. B) Lirik qahramon holati tabiatdagi manzaralar bilan qiyoslanadi va bu o‘ziga xos oksimoronni vujudga keltiradi. S) A, B javoblar to‘g‘ri. D) Lirik qahramon ruhiyatida tushkunlik kayfiyatini ifoda etmoqda.

8. “Uyg‘onguvchi bog‘larni kezdim,

Topay dedim qirdan izingni.

Uchratmadim ammo o‘zingni” satrlaridagi lirik qahramonning izlayotgani kim yoki nima va nima uchun uni uyg‘onguvchi bog‘lardan qidiradi?

A) Sevimli yor, uyg‘onguvchi bog‘ ko‘klam timsoli B) Ko‘pdan izlagan muhabbati, muhabbat va bahor hamisha yonma-yon keladi S) Bahor, bu faslda butun mavjudot uyg‘onadi. D) Boychechak, chunki u bahorni boshlab keladi.

“Birinchi muhabbatim”, “Sen bahorni sog‘inmadingmi” she‘rlari tahlili

«Birinchi muhabbatim» she‘rini yurakda armon bo‘lib qolgan muhabbat haqidagi mungli, hazin kuyga qiyoslash mumkin. Har bir bandi mustaqil qofiyalangan bu she‘r xalqimizning sevimli hofizi SHERALI JO‘RAYEV tomonidan qo‘shiq qilingan.

She‘rda lirik qahramon kechinmalari tabiatdagi eng go‘zal manzaralar bilan uyg‘unlikda ochib beriladi. Lirik qahramon oqshomda, oy botib, yulduzlar nur socha boshlaganda birinchi muhabbatini yodga oladi. Shoir bunda tashxisdan foydalanadi: “oy bo‘zarib botganda” – bo‘zarish insonga xos. “Zuxro yulduz miltirab, xira xanda otganda” – xanda otish – kulish insonga xos. Shoir yulduzlarning nur sochishini shu holat orqali ifoda etadi.

Inson hamisha aql va yurak bahsi bilan yashaydi. Shu bois lirik qahramon “Ayro ham tushdim ba‘zan qalb bilan, imon bilan”, – deydi.

Uchinchi bandda tabiat tasviri va ruhiyat manzaralari o‘rnini falsafiy fikrlar egallaydi. Shoir aytmoqchi, inson qalbi hamisha “bir hisga” – muhabbatga asir bo‘lib yashaydi.

“Sen bahorni sog‘inmadingmi” she‘ri ham aslida “Birinchi muhabbatim”ning mantiqiy davomidir. Unda lirik qahramon tabiatdagi go‘zal manzaralar – uyg‘onguvchi bog‘lar”, zalvorli tog‘lar,

na'matakdaqi sa'va, qorliklardan sipqorilgan suv kabilardan ko'ngliga yaqin sevimli yorni izlaydi.

Birinchi muhabbatim

Kecha oqshom falakda oy bo'zarib botganda
Zuxro yulduz miltirab xira xanda otganda
Ruhimda bir ma'yuslik, sokinlik uyg'otganda,
Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim,
Eslab xayolga toldim, birinchi muhabbatim.
O'tdi yoshlik zavq bilan, gohi to'polon bilan
Gohida yaxshi bilan, gohida yomon bilan,
Ayro ham tushdim ba'zan qalb bilan, imon bilan
Lekin seni yo'qotdim, birinchi muhabbatim,
Mangu g'aflatda qotdim, birinchi muhabbatim
Dunyo degan shundayin anglab bo'lmas sir ekan,
Goh keng ekan, gohida tuynuksiz qasr ekan,
Lekin inson hamisha bir hisga asir ekan,
Nechun bilmovdim avval, birinchi muhabbatim,
Parvo qilmovdim avval, birinchi muhabbatim.
Holbuki orzulardan judo ham bo'lganim yo'q,
Oy kabi to'lganim yo'q, yulduzday kulganim yo'q,
Erta xazon gul kabi sarg'ayib so'lganim yo'q,
Seni eslab yig'layman, birinchi muhabbatim,
Eslab bag'rim tig'layman, birinchi muhabbatim.
Yo'lin yo'qotsa odam muhabbatga suyangay.
G'ussaga botsa odam muhabbatga suyangay
Chorasiz qotsa odam muhabbatga suyangay,
Men kimga suyangayman, birinchi muhabbatim,
Faqat eslab yongayman, birinchi muhabbatim.
Nido bergil, qaydasan, sharpannga quloq tutdim.
Sirli tushlar ko'rib men bor dunyoni unutdim,
Tongda turib nomingga ushbu she'rimni bitdim,
Dildagi ohim mening, birinchi muhabbatim,
Yolg'iz ollohim mening, birinchi muhabbatim.

Sen bahorni sog'inmadingmi

Uyg'onguvchi bog'larni kezdim.
Topay dedim qirdan izingni.

Yonog'ingdan rang olgan dedim –
Lolazorga burdim yuzimni,
Uchratmadim ammo o'zingni,
– Sen bahorni sog'inmadingmi?
Uzoqlarda zalvorli tog'lar
Xayolimni keldilar bosib.
Kechdi qancha intizor chog'lar,
Vasling menga bo'lmadi nasib.
Sensiz men ham, bahor ham g'arib,
– Sen bahorni sog'inmadingmi?
Ungurlarda sakraydi ohu.
Na'matakda sa'va mittijon.
Qorliklardan sipqorilgan suv
Daralarda uradi javlon.
Nigohimdan faqat sen pinhon,
– Sen bahorni sog'inmadingmi?
Mana, bugun navro'zi olam,
Do'stlaringa gullar tutarman.
Qaylardasan, sevgili erkam...
Qo'limda gul, seni kutarman,
Umrin bo'yi chorlab o'tarman:
– Sen bahorni sog'inmadingmi?

Krossvord

| | | | | | | | | |
|--|--|--|-----------------|--|-----------------|--|--|--|
| | | | <i>M</i> | | | | | |
| | | | | | <i>i</i> | | | |
| | | | | | <i>t</i> | | | |
| | | | | | <i>t</i> | | | |
| | | | <i>l</i> | | | | | |
| | | | | | <i>y</i> | | | |
| | | | | | <i>u</i> | | | |
| | | | | | <i>l</i> | | | |
| | | | | | <i>d</i> | | | |
| | | | | | <i>u</i> | | | |
| | | | | | <i>z</i> | | | |
| | | | | | | | | |

1. A.Oripovning ona mavzusidagi she’ri. 2. Shoirning otasiga bag‘ishlangan she’rining birinchi so‘zi. 3. A.Oripov to‘plamlaridan birining nomi. 4. Shoirning Dantening “Ilohiy komediya”si ta’sirida yozgan dostoni. 5. “Jannatga yo‘l” dostonidagi bosh qahramon. 6. Shoirning mashhur she’rlaridan biri. 7. Shoir to‘plamlaridan birining nomi. 8. A.Oripov tarjimasidagi l.Ukrainka dostoni. 9. Shoirning haj safaridan keyin yaratgan to‘plami.

Krossvordning javobi.

1. “Onamga xat”
2. “Qarshi”
3. “Munojot”
4. “Jannatga yo‘l”
5. Yigit.
6. “Yillar armoni”
7. “Ruhim”
8. “Mag‘oralarda”
9. “Haj daftari”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. –Т.: Ўзбекистон, 2009.
2. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
3. Алиев А. Истиклол ва адабий мерос. – Т.: O‘zbekiston, 1997.
4. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1999.
5. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т.: Университет, 2005.

Abdulla Oripov asarlari:

6. Орипов А. Йиллар армони. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
7. Орипов А. Ишонч кўприклари. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
8. Орипов А. Ҳаж дафтари. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1992.
9. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. 1-4-жилдлар. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.

Abdulla Oripovga bag‘ishlangan tadqiqotlar:

10. Норматов У. Ижод эстафетаси ишончли кўлларда. Китобда: Адабиётимизнинг ярим асри. – Т.: Ўзбекистон Давлат нашриёти, 1967.
11. Шарафиддинов О. Адабий етюдлар. – Т.: Ўзбекистон Давлат нашриёти, 1968.
12. Шарафиддинов О. Талант – халқ мулки. – Т.: Ёш гвардия, 1979.
13. Шарафиддинов О. Шеърят – қалб ёлқини. Китобда: Ҳаёт билан ҳамнафас. –Т.: Ёш гвардия”, 1983.
14. Қўшжонов М. Онажоним шеърят. – Т.: Ўқитувчи, 1984.
14. Ғафуров И. Шеърят – курашчанлик демак. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984.
15. Воҳидов Р., Ҳошимова М. Шеърят – шоир қалби. – Т.: Фан, 1987.

16. Ҳаққулов И. Абадият фарзандлари. – Т.: Ёш гвардия, 1990.
17. Афоқова Н. А. Орипов шеърлятида бадий санъатлар. – Т.: Ёзувчи, 1994.
18. Афоқова Н. Шеър, ҳадис, ҳикмат. – Т.: Ёзувчи, 1994.
19. Қўшжонов М., Сувон Мели. Абдулла Орипов. –Т.: Маънавият, 2000.
20. Ғаниев И., Афоқова Н. Озод руҳ фалсафаси. –Т.: Ған, 2005.
21. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. –Т.: Ған, 2007.
22. Мирпўлат Мирзо. Сен мисли камалак – юксак ва ўлмас... А. Орипов билан суҳбат// Жаҳон адабияти, 2011, №3.
20. Норматов У. Ватаннинг оташин куйчиси// Ўзбекситон Адабияти ва санъати, 2011 йил, 25 март.
21. Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. –Т.: Ўқитувчи, 2012.
22. Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърлят. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2015.
23. Қувватова Д. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonчилигининг тараққиёт хусусиятлари. ДД. – Т., 2016.

Internet saytlari:

24. www.alishernavoiiy.uz
25. www.ziyo-net.uz
26. www.literature.uz
27. www.kutubxona.uz.

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| So‘z boshi o‘rnida..... | 3 |
| Mavzu: Hamid Olimjon ijodi | 4 |
| Mavzu: Saida Zunnunova ijodi. “Ruh bilan suhbat” dostoni | 19 |
| Mavzu: Erkin Vohidov ijodi. “Ruhlar isyoni” dostoni..... | 45 |
| Mavzu: Abdulla Oripov lirikasi..... | 63 |

Dilrabo Quvvatova

YANGI O‘ZBEK ADABIYOTI
(innovatsion usullar)

O‘QUV QO‘LLANMA

| | |
|-------------------------|----------------------|
| <i>Muharrir:</i> | <i>A. Qalandarov</i> |
| <i>Texnik muharrir:</i> | <i>G. Samiyeva</i> |
| <i>Musahhih:</i> | <i>Sh. Qahhorov</i> |
| <i>Sahifalovchi:</i> | <i>M. Ortiqova</i> |

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 01.02.2022. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog`ozi. Bosma tobog`i 5,2. Adadi 100. Buyurtma №36.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45